

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK _____

Matqurbonov Omonboy Odilbekovich

**“Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining ma'naviy-
madaniy taraqqiyoti (2000-2015yy)”.**

5A120302- Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

Magistr akademik darajasini olish

uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar :

t.f.n. Abdullayev T.P

Urganch – 2017

MUNDARIJA.

KIRISH.....	3-8
--------------------	------------

I-BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA`NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTI.

I.1. Ma`naviy-madaniy taraqqiyotning rivojida milliy g`oya, ma`naviy qadriyatlarning o`rni.....	9-25
---	------

I.2. Milliy an`ana va qadriyatlarni e`zozlash yo`lida O`zbekiston -YuNESKO xamkorligi.....	25-40
--	-------

II BOB. O`ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TA`LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHGA QO`SHGAN HISSASI.

II.1. O`zbekistonda ta`lim sohasida o`tkazilgan islohotlarning bosqichlari va samaradorligi.....	41-48
--	-------

II.2. O'zbekistonning ta`lim sohasida tanlagan yo'li xorijliklar e'tirofida.....	48-59
--	-------

III-BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARINING QABUL QILINISHI VA UNING AMALIY AHAMIYATI.

III.1. O`zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat dasturlarini tarixiy ahamiyati.....	60-79
--	-------

Xulosa.....	80-82
-------------	-------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	82-85
---	-------

Ilovalar-----	
---------------	--

Kirish:

Magistrlik ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi yaqinda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan yosh davlatlardan biridir. Lekin O'zbekiston qisqa vaqt ichida samarali tashqi siyosat olib borayotgan xalqaro munosabatlar sub'ektiga aylandi. Shu yo'l bilan u o'zining milliy manfaatlarini himoya qilibgina qolmasdan, ularni yangi yuqori darajaga ko'tardi. O'zbekistonning jahon arenasida munosib o'rin egallashiga nafaqat uning boy madaniy tarixi, qulay geografik joylashuvi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, yoki boy tabiiy resurslari balki uning barkamol avlodni tarbiyalashdagi harakatlari va bu sohada erishayotgan yutuqlari sabab bo'lmoqda. Zero, barkamol avlod insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq jahon xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Mustaqil komil yoshlarni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Farobiyning " Fozil odamlar shahri " asaridagi g'oyani yodga oling. Unga ko'ra jamiyatning har bir fuqarosi, mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar fozil kishi hisoblanib, fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, ularni tahlil etadi, fikrlaydi, o'z kasbining mohir ustasi, kerak bo'lganda o'z Vatani uchun jon fido qilgan. Ota-bobolarimizning bunday fikr yuritishlarining o'zi ularning naqadar yuksak ma'naviyatga ega bo'lganliklari hamda davlat va jamiyat kelajagini o'ylashlari, uning uchun poydevor yaratganliklaridan dalolat beradi. Yoshlar tarbiyasi bilan bo'g'liq ko'p asrlik merosi bizning mavzumizga eng birinchi va asosiy asos bo'ladi albatta. Qolaversa, 1991 yilning 20 noyabrida "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi , 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2002-yil 28-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi qarori, 2004-yil 21-maydagi "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi, 2008-yil 13-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi, "Barkamol avlod

yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, yoshlarni, avvalambor kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi, 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yil 25 avgustda imzolagan "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 451-sonli, 2006 yil 10 oktabrdagi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab – quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 486-sonli qarori, 2014-yil 17-oktabrdagi "Mamlakatning ijtimoiy hayotida faol qatnashayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2014-yil 6 fevraldagi PQ-2124-son qarori hamda I.Karimovning "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga bergan javobidagi aytilgan fikr-mulohazalar dissertatsiya mavzusining dolzarbligini yanada oshiradi.

«2008 yil – Yoshlar yili» davlat dasturining qabul qilinishi, yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada mustahkamlash bilan birga, yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar xususan "Kamolot" YoIHga yanada katta ma'suliyatni yuklaydi. Bugunda harakatga bo'lgan Prezidentimiz hamda hukumatimizning ishonchini "Yoshlar yili" davlat dasturida ko'rish mumkin. Dasturning 9 bo'limi 113 bandining 49 tasida «Kamolot» YoIH bevosita ijrochi sifatida belgilangan. Bu esa harakatni davlat dasturining hayotga joriy etilishida o'z faoliyatini yanada jo'shqinroq va samarali tashkil etishga undaydi. Davlatning taraqqiy etishiga kafolat beruvchi milliy g'oya haqida so'z ketar ekan avvalo, bugungi kunda

O'zbekistonda milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda nodavlat - notijorat tashkilotlarning xususan, ular orasida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining o'rnini hamda uning faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mazkur tadqiqot ishi aynan shu masala, ya'ni mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va uni yoshlar ongiga sindirishda "Kamolot" YoIHning o'rnini va harakat faoliyatining samaradorligiga bag'ishlanadi.

Respublikamizda birinchi prezidentimiz tomonidan olib borilgan oqilona siyosat murakkab jarayonlar va qo'rqinchli o'pqnlar ummonidan O'zbekistonni ulkan yo'qotishlarsiz olib chiqa oldi va taraqqiyot sari yuzlantirdi. Milliy istiqloq mafkurasiga asoslangan etnik siyosat demokratiyaga asoslangan bo'lib, bugungi kunda uni butun dunyo tan olmoqda. Zero, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, taraqqiyotning "o'zbekcha modeli", "yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay", "Islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun" kabi mashhur tamoyillar bugun dunyo e'tirofida. O'zbekiston erishayotgan ulkan yutuqlar zaminida, uning o'z siyosatida gumanistik –insonparvarlik g'oyalarga asoslanganligi, butun dunyo xalqlarini qadriyatlariga hurmat bilan qarayotganligi, polietnik davlatdagi har bir millat vakilining huquqlarini qonunlar asosida himoya qila olgan zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish va uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat". Demak, bugungi kunda O'zbekiston etnosiyosatining gumanistik asoslarini o'rganish dolzarb masaladir. Bu masalani o'rganish va undan xolisona xulosa chiqarish qardosh va tengdosh davlatlarning ham tinchligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatligi, olamu-odam taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolaru, serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etdi. Tabiiyki, bunday hayotiy zaruriyat barcha ijtimoiy –gumanitar fanlar qatori tarix fani oldiga

ham yangi vazifalar qo'ydi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqning istiqloлга erishish yo'lidagi fidoiy mehnatini, milliy mustaqillikka erishish yo'llari va vositalarini, milliy istiqloл mafkurasini yaratish kabi bir qator muhim muammolarni mushohada qilib, davlat dasturlari, qator qonun va qonun osti xujjatlar, mavzu yuzasidan ilmiy asarlar, risolalar yaratildi¹.

Ularning asarlarida O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin olib borilgan etnik siyosati, respublikamizdagi etnoslarning qadriyatları, urf-odatlarini himoyalash va qadrlash masalalari, milliy siyosatda milliy an'analar, mentalitet va umuminsoniy tendentsiyalarga e'tibor kabi masalalar yoritildi. Biz yoritayotgan mavzu, asosan birinchi prezidentimiz I.A.Karimov² asarlarida o'z ifodasini topgan. Milliy istiqlolimizning asoschisi, milliy siyosatimizning yetakchisi sifatida uning asarlarida etnik siyosat masalalari jiddiy tahlil qilingan.

¹ "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun; O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Axborotnomasi N 2, 80-modda, 1992 yil; O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonuni 29.08.1997-y. N 464-I; "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2004, 2008, 2010 yillar, 21-son, 42-son, 30-son; "Xalq so'zi", 2010-yil 29-iyul; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" gi 451-sonli qarori. // "Xalq so'zi", 2006 yil 26 avgust; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 486-sonli qarori. // "Xalq so'zi", 2006 yil oktabr; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar yili" davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-805-sonli qarori. 2008 yil 29 fevral; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar yili" davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T. O'zbekiston, 2012; Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloл, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1996. 1 jild; Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. - T.: O'zbekiston, 1996; Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi mukaddasdir. - T.: O'zbekiston, 1996; Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. - T.: O'zbekiston, 1996. 4 jild . Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. - T.: O'zbekiston, 1997. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1998. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 1999. 7 jild . Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000. 8 jild . Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz ma'sulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001. 9 jild. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmok kerak. - T.: O'zbekiston, 2002. 10 jild . Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratiya taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. - T.: O'zbekiston, 2003. 11 jild . Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, xamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. - T.: O'zbekiston, 2004. 12 jild . Karimov I.A. O'zbek xalqi xech qachon xech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: O'zbekiston, 2004. 13 jild. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari - oliy qadriyat. - T.: O'zbekiston, 2006. 14 jild Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarini chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezonini va maqsadlari. T.:O'zbekiston, 2007. 15 jild . Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 2008. 16 jild . Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash bizning oliy maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2009. 17 jild. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. T.: O'zbekiston, 2010. 18 jild . Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T. O'zbekiston, 2011. 19 jild . Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. T. O'zbekiston, 2012. 20 jild .Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.Karimov I.A. Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009.

Shuning bilan bir qatorda, aynan, prezident tomonidan milliy siyosatga oid qaror, farmon va qonunlarning amalga oshirilishi nazorat qilinmoqda.

Qator olimlar va siyosatchilarning, masalan, Abrorov M., Azizxo'jaev A., Bobojonova D.B., Djabbarov I.M., M.Murtazaeva, N.Jo'raev asarlarida³, darsliklar da va o'quv qo'llanmalarda mavzuga oid materiallar e'lon qilingan. Shunday bo'lsada, biz ushbu mavzuning yoritilmagan jihatlariga e'tibor berib magistrlik dissertatsiyasini yozishga harakat qildik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Ushbu magistrlik ishini yozishdan asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasini mustaqillik yillarida erishgan madaniy va ma'rifiy sohada erishgan yutuqlarini mavjud bo'lgan materiallar asosida yoritishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda qator vazifalar amalga oshiriladi.

- O'zbekiston Respublikasining ma'naviy – madaniy taraqqiyotini tarixiy manbalar asosida o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi aholisining madaniy hayotdagi ishtiroki;
- O'zbekiston milliy siyosatining gumanistik asoslarini tahlil qilish;
- Islom Karimovning mamlakat ma'naviy-madaniy taraqqiyotini yuksaltirish tendensiyalarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi baynalmillal madaniyat markazi va Milliy madaniy markazlarining milliy madaniyat va millatlararo totuvlikni mustahkamlash yo'lidagi faoliyatini ilmiy tahlil qilish;.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining milliy siyosatdagi ahamiyati;
- Taraqqiyotning “o'zbekcha modeli” milliy siyosatning asosi ekanligini ilmiy asoslashdan iborat.

Dissertatsiyaning manbashunoslik va nazariy-uslubiy asoslarini:

³ Abrorov M. Yangicha fikrlash va milliy urf-odatlar. T.: Fan, 1990. Azizxo'jaev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T.: Sharq, 1997. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. T., 2001. Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi. T., 2003. Aminov B., Rasulov T. Vatan – yurakdagi javoxir. – T.: O'qituvchi, 2001; Jabborov I. O'zbeklar (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). T.: “Sharq”, 2008. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari xaqida mulohazalar. – T.: “Sharq”, 2001. Ibrohimov A. Vatan tuyg'usi. T., "O'zbekiston", 1996. Ibrohimov A. Millat ovozi. “Sharq”- T., 2002. Qosimov R., Sodiqov M. Mustaqillik – oliy ne'mat. T., 2000. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida T.: O'zbekiston, 2005. Ochiliev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. T.: O'zbekiston, 2004; O'zbekiston mustaqillik yillarida. "O'zbekiston", 1996 y; O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi xolat. T: TIU, 2011.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning asarlari, risolalari, respublika ro'znomalarida chop etilgan ma'ruza va nutqlari, O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi, qonunlari, farmonlari, qarorlari va ko'rsatmalari, Respublika mustaqillikka erishgandan keyin chop etilgan yirik tarixiy ilmiy adabiyotlar va arxiv hujjatlari, internet sayti materiallari va undagi asosiy g'oyalar tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasini yozishda tarixni yoritishning umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan printsiptalik, reallik, xolislik kabi printsiplariga amal qilindi. Ilmiy ish yozishning analiz, sintez va ilmiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Mavzuning yangiligi: 1.O'zbekiston ma'naviy-madaniy hayotida umumjahon tendentsiyalarining qo'llanishi ilmiy adabiyotlar asosida o'rganildi. 2. O'zbekistonda madaniy hayotni yuksaltirishning huquqiy asoslari ochib berildi. 3. O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifat markazlari rolining ortib borishi jarayoni taxlil etildi. 4. O'zbekiston madaniy hayotining qator jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar va takliflar ishlab chiqildi.

Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati. "Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining ma'naviy-madaniy taraqqiyoti" mavzusidagi ushbu magistrlik ishining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki;

- Birinchidan, ushbu mavzuning o'rganilishi va yoritilishi talaba, o'quvchi va tadqiqotchilarda vatanga mehr-muhabbat tuyg'usini, millat va o'zga millatlarning qadriyatlari va urf-odatlarini hurmat qilish tuyg'usini shakllantiradi. Millat boyligi umuminsoniyatga tegishli ekanligini va bashariyat boyligi bo'lgan insonni qadrlashga o'rgatadi.

- Ikkinchidan, ushbu mavzudagi materiallardan maktab, kollej, litsey va joylarda mustaqillik soatlari, darslari va ma'ruzalarini o'qitishda foydalanish mumkin.

- Uchinchidan, joylarda tashkil etilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatida ushbu ishdagi tavsiya va xulosalardan foydalanish mumkin.

Mavzuning tarkibi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

I.bob. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining ma'naviy-madaniy taraqqiyoti

1.1. Ma'naviy-madaniy taraqqiyotning rivojida milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning o'рни.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish Milliy istiqlol g'oyasi sohasidagi eng asosiy vazifa, - deb ta'kidlagandi O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov, — milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir⁴. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kundan boshlab jamiyatimizning milliy g'oyasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qoldi.

1993-yil 23-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993-yil 7-may kuni nutq so'zlab, Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi:

- milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim;
- shu bilan birga, bu g'oya xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyanan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mustaqil taraqqiy davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

„Tafakkur“ jurnalining 1998-yil 2- sonida jurnal bosh muxbirining savollariga O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizni nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, ta'qiq qilish, ma'muriy choralarni ko'rish yo'li

⁴ Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. T., "O'qituvchi", 2007, 207-bet.

bilan yengib bo'lmaydi. „G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin — degan haq fikrni ilgari surdi Islom Karimov. Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nima? „Maqsad degani - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir... Toki bu maqsad xalqni xalq, millatni millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin"⁵.

Jamiyat mafkurasini qanday tushunasiz, degan savolga I. A. Karimov quyidagicha javob berdi: „Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman"⁶.

Milliy mafkuraning shakllanishida kimning manfaatlari va qarashlari yuzaga chiqishi kerak? „Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lmish, oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbayi bo'lishi lozim"⁷.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov suhbatda „Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?" degan savolni qo'yadi va unga javob berar ekan, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr- mulohazalarni, vazifalarni ilgari suradi:

- milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

⁵ I. A. Karimov. „Tafakkur" jurnali. 1998-yil, 2-soni.

⁶ O'sha joyda.

⁷ I. A. Karimov. „Tafakkur" jurnali. 1998- yil, 2- soni.

- ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya—mafkura bo'lishi kerak;
- uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor;
- to'rtinchidan, milliy g'oya, birinchi navbatda, yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur;
- beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajakni uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Jamiyat ma'naviyatini yangilash va yanada yuksaltirish bugungi kunda ham mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov o'zining „O'zbekiston XXI asrga intilmoqda“, „Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz“ ma'ruzalarida islohotlarning yangi bosqichida ma'naviyat sohasidagi vazifalarni asoslab berdi.

„Ma'naviyat sohasidagi eng asosiy vazifamiz milliy qadriyatlarni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi

bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir"⁸.

Yurtboshimiz hozirgi zamonda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurash bo'layotganligi, ko'p narsalarni mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar hal qilishi mumkinligi, O'zbekistonda ham ba'zi yoshlarni yo'ldan chalg'itadigan diniy ekstremizm xafvi mavjudligi haqida ogohlantirib kelmoqda. 80-yillarning oxirlarida mamlakatimizga o'zini „do'st“, „dindosh“, „millatdosh“ qilib ko'rsatib, go'yo islom dinining sofliqi uchun kurashishga „da'vat“ etuvchi ayrim kimsalar kirib kelganligi ma'lum. Ular muqaddas islom dinimizni asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bizga begona bo'lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi, ayrim yoshlarni o'ziga mahliyo qilishga, jaholat va jinoyat botqog'iga tortishga ulgurishdi ham. Namangan va Toshkentda sodir etilgan qonli voqealardan keyingina bu kuchlarning niyati hokimiyat uchun kurash bo'lib, ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatining O'zbekistondagi bir to'dasi ekani oshkor bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliq vaziyatida begona g'oyalarning O'zbekistonga xuruji kuchaydi.

Bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak? „Buning yo'li — odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash... Farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur“⁹.

Shunday qilib, Islom Karimov O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo'ldi. Ma'no-mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo

⁸ I. A. Karimov. „Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz“. 24—25-betlar.

⁹ I. A. Karimov. „Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman“. „Fidokor“ gazetasi. 2000-yil 8-iyun.

totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash kabi insonparvar tamoyillarni o'zida uyg'unlashtirgan milliy istiqlol g'oyasi shakllandi.

Mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at, mahallalar va mehnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda. Barcha ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga „Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanini o'qitish joriy etildi.

Respublika shahar va qishloqlarida faoliyat yuritayotgan kutubxona va klub muassasalari aholi orasida madaniy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanmoqda. Respublika madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi 7000 kutubxona, 2500 dan ortiq madaniyat saroylari, klub muassasalari va ular qoshidagi badiiy havaskorlik jamoalari aholiga ma'naviy-ma'rifiy xizmat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolasida «O'zbek millati azaldan o'z fikr-zikri, o'z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz», – deganda xalqimiz tarixiy qismatidan saboq olishni, otalar tajribasini o'rganishni nazarda tutadi. Zotan, xalqimizning uzoq tarixi ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash davridir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov **«Mustaqil o'zbek davlati – xalqimizning tarixiy yutug'idir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam Mustaqillikni qo'lga kiritib, gullab-yashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi – biz ko'zlayotgan oliy maqsaddir»**, deganida butun xalqimizning orzu-umidini, maqsad va intilishlarini ifoda etgan edi.

Milliy g'oya targ'ibotida tarixiy merosdan foydalanishda ma'lumotlarni

keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi matbuot (gazeta va jurnallar), radio, televideniye kabi ommaviy axborot vosit-ari (OAV)ning o'rni beqiyosdir. Mustaqillik yillarida ijtimoiy - ma'naviy hayotimizning ehtiyoji tufayli OAV ning keng va salmoqli tizimi vujudga keldi.

Fikrimizning isboti uchun bir necha misollar keltiramiz. "Xalq so'zi" gazetasining 1997 yil 24 sentyabrda arxeolog olimlar T. Shirinov va A. Berdimurodovning "Qadim navolarning qaytishi" maqolasida 1964 yilning bahorida qadimshunos A. Asqarov Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idagi bronza davriga oid yodgorlikni qaziyotganda bu yerdan qabrdan mo'jazgina, suyakdan yasalgan, hozirda ham chalishga yaraydigan nay topilgani haqida hikoya qilingan edi.

Tadqiqotchilar bu cholg'u asbobi bundan uch ming yillar ilgari yasalganini aytishdi. Bu nay shu paytgacha Markaziy Osiyodan topilgan eng qadimgi cholg'u asbobi ekanligi bilan qimmatlidir.

Insoniyat tarixida tarixiy meros va milliy g'oya nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ular insonning o'zi kabi azaliydir. Ko'p ming yillik tarixi davomida odamzot xilma-xil g'oyalarni vujudga keltirgan. Yaratuvchanlik g'oyalari bilan qurollangan kishilar farovon hayot, erkin jamiyat qurish uchun kurash olib borganligi tarixdan ma'lum. Bunday jarayon ijobiy g'oyalarning tug'ilishiga, ular esa o'z navbatida elatlar, xalqlar, millatlar manfaatlarini ifodalovchi hayot tarzining shakllanishi uchun asos bo'lgan. Shuningdek, milliy davlatlarning yuzaga kelishida bu g'oyalar yetakchi va yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etgan. Buni biz o'zbek davlatchiligi g'oyalarining shakllanishi va takomili misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ammo, yetarli bilim, malaka, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, o'z tarixi, ajdodlarining kimligidan bexabar, soddadil, ishonuvchan yoshlar, yuqorida ta'kidlangan biz uchun yot, begona bo'lgan g'oyalar tuzog'iga ilinishi ehtimoldan holi emas. Bularning oldini olish uchun ularga qarshi yoshlarning ongi va qalbida tarixiy merosdan foydalangan holda milliy g'oyani shakllantirmog'imiz lozim.

Milliy g'oya targ'ibotida tarixiy merosning o'rni va roli nihoyatda katta bo'lib, u milliy g'oya targ'ibotida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi

Ma'lumki, tarixiy merosning shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida o'zgardi, rivojlanib keldi. Qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Baqtriyada shakllangan dastlabki yozma manba – “Avesto”da ham ezgulik g'oyalari ilgari surilib, unda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Zardushtiylik g'oyalari mintaqamizga islom dini kirib kelgunga qadar ko'k tangrisiga (osmon va quyoshga) sig'inish (shomonlik) va buddaviylik ham diniy e'tiqod sifatida zardushtiylik bilan yonma-yon yashab keldi. Kushon davlati davriga kelib zardushtiylik bilan bir qatorda buddaviylik ham davlat dini vazifasini o'tay boshladi.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda ahamoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yib, mintaqada ijtimoiy hayot izdan chiqdi. Ajdodlarimiz mustaqillik uchun kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, milliy davlatchilikni tiklash uchun kurash o'sha paytdagi ajdodlarimiz orzu-umidlari, ularning g'oya va mafkurasini tashkil qiladi. Ularga asoslangan ajdodlarimiz Kushon podsholigi va Buyuk Turk xoqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldi.

VII asr oxiri VIII asr boshlarida arab bosqinchilari Turonni bosib olishi, istiloga qarshi kurash g'oyalari yagona maqsad yo'lida Turonni arab istilochilaridan ozod qilish uchun janglarda birlashtiruvchi g'oya bo'ldi. Muqanna qo'zg'oloni uning ozodlik uchun kurash g'oyalari, istilochilarga qarshi kurashda mafkura vazifasini bajardi.

Movarounnahrda (hozirgi O'zbekiston hududida) islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolalari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr

Forobiy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning oʻlmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufar: Xoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq Gʻijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning taʼlimotidagi komil inson gʻoyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sogʻlom maʼnaviy-ahloqiy ruhini saqlashga xizmat qildi. Bu gʻoyalar Vatan va xalq manfaati yoʻlida fidoyilik va insonparvarlikni ulugʻladi.

Bu gʻoyalar oʻzbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil boʻlib xizmat qildi. Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma” kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh gʻoyalar sifatida ilgari surildi. Bu gʻoyalar temuriylar davlati mafkuraviy tamoyillarining ustivor yoʻnalishi edi.

Hozirgi globallashuv davrining nihoyatda murakkab va masʼuliyatli vazifasi – Oʻzbekistonning milliy istiqlool mafkurasini targʻib qilish juda katta aql-idrok va tafakkurni, ilmiy-nazariy bilimni, boy hayotiy tajribani, jamiyatning taraqqiyot qonunlarini bilishni, mamlakatimizning nafaqat oʻtmishi va hozirgi davri, balki istiqbolini ham ilmiy fahmlashni taqozo etadi. Bu ishlar tarixiy merosdan foydalangan holda milliy goyani targʻib etish orqali ilmiy-nazariy, intellektual kuchlarning, siyosiy-ijtimoiy fanlari vakillari, davlat va jamoat arboblari, adabiyot ahli, xullas, jamiyatimizning turli tabaqalarining oʻzaro hamkorlikdagi saʼy-harakati natijasida amalga oshadi

Bu intilishlar XIX asrda maʼrifatparvarlik gʻoyalari bilan chiqqan Ahmad Donishning ilgʻor qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari – Behbudiy, Fitrat, CHOʻlpon, Usmon Nosir, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va boshqalarning ijodi va amaliy faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun oʻlkaning milliy mustaqilligi uchun kurash gʻoyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi koʻtarilgan istiqloolchilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidchilar boʻldilar. Biroq,

mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu utopik, xayoliy g'oyalar real hayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqlolni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid hukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon-jahdi bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat bo'lib, o'sha yillardagi mash'um qatag'onlar bu kurashning fojealari ifodasi edi.

Zo'ravonlik bilan o'rnatilgan bu g'oyalar jamiyatning yakkayu-yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Butun ommaviy axborot vositalari, madaniyat, adabiyot va san'at, ijtimoiy fanlar shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga bo'ysundirildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar. Lekin, bu g'oyalar baribir xalq qalbidan chuqur joy olmadi, xalqimizning milliy g'oya va asriy qadriyatlarini yo'q qila olmadi. Xalqning asriy orzusi bo'lgan milliy g'oyalar O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan izchil va jasorat bilan yana kun tartibiga qo'yildi, Vatanimiz ozodligi va mustaqillikni qo'lga kiritishda muhim omil bo'ldi.

Mafkura ommani, xalqni yangi jamiyat qurishga yo'naltiradi va uyushtiradi. Xalqning faolligi, o'z mehnati, orzu-umidlarini muayyan maqsadlar bilan bog'lay olishi ilg'or mafkuraga qanchalik e'tiqod qilayotganiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Milliy g'oyamiz jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv talablaridan kelib chiqib, millatlar va xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy manfaatlarini o'zida aks ettiradi va himoya qiladi.

SHuningdek, unda jamiyatimiz taraqqiyotining tub, ustuvor muammolari hal etilishining ilmiy asoslarini belgilovchi g'oya va qarashlar ishlab chiqiladi. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, o'z umrini o'tab bo'lgan eski g'oyalari o'rnida yangi ijtimoiy munosabatlarni, xalqning asl maqsad-muddaolarini ifoda etuvchi ilg'or va bunyodkor g'oyalar shakllanmas ekan, jamiyatda g'oyaviy

vakuum – bo'shliq yuzaga keladi. Bunday bo'shliq ilg'or g'oyalar bilan to'ldirilmasa, uni xalq hayoti uchun yot va begona bo'lgan mafkuraviy ta'sirlar egallab olishi mumkin.

Buni yaxshi anglagan yurtboshimiz istiqlolning birinchi kunlaridanoq bu borada zarur chora-tadbirlar ishlab chiqishga katta e'tibor berdi. SHu bois ham eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliqni – milliy g'oya tushuncha va tamoyillari bilan to'ldirish va shu tariqa zararli g'oyaviy tajovuzlarning oldini olishga kirishadi.

Ana shu balo-qazolardan himoyalaniish uchun tajovuzkor g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilish, kishilarimizni jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'liq aks ettiradigan sog'lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur. Ayniqsa, bu o'ta murakkab va qaltis tarixiy sharoitda xalqimizning tarixiy yutug'i – O'zbekiston mustaqilligini ko'z qorachig'idek asrash, pirovard maqsadlar yo'lida odamlarni safarbar qilish, uyushtirish, jipslashtirish uchun ana shunday mlliy g'oya nihoyatda zarur va bu jarayon amalga oshirilmoqda.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat taraqqiyot jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishida turmushning barcha sohalarida, xususan, iqtisodiyot, ijtimoiyot va siyosatda bo'lgani kabi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilish zarurati paydo bo'ladi. CHunki o'ziga xos yangi davr, sharoit, vaziyat an'anaga aylanib qolgan g'oyalar, qarashlar, munosabatlarni o'zgartirmasdan, ma'lum mafkuraga asoslanmasdan, yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi qarash, munosabat, milliy g'oyani ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov ta'kidlagani kabi: “O'z hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya, milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar”.¹ “...

¹ Karimov.I Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoyillar. Toshkent 2000 yil

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng biz soxta mafkuraning yakka hokimligidan qutuldik. Ma'naviyatni, mafkurani zug'umlardan ozod qilib, erkin fikrga, milliy tafakkurga keng yo'l ochdik.

Endigi asosiy vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchining orta borishidir. Chunki tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'la olmaydi".²

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov "ma'naviyat" tushunchasi va ahamiyatini ilmiy iste'molga olib kirgan nazariyotchi va amaliyotchilardan biri hisoblanadi. Buning ahamiyati shunda bo'ldiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloiotlar zaminida ma'naviyat asosiy o'rinni egalladi. U ma'naviy qashshoq jamiyatda iqtisodiy farovonlikka va siyosiy barqarorlikka erishib bo'lmasligini nazariy jihatdan asoslab berdi hamda jamiyat iayotida amalga oshiriladigan vazifalarda ana shu kontseptsiyaga o'z faoliyatida izchil amal qilib keldi. Uning bu nazariyasi va faoliyatining mamlakatimiz iayotidagi ahamiyati shunda bo'ldiki, barcha soia va yo'nalishlar bo'yicha belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish imkoniyati kengayib bordi. Bu ijobiy yutuqlarning saloiyyati va ahamiyati haqida fikr yuritganimizda bugun jahonda iqtisodiy yuksaklikka erishgan mamlakatlarda ma'naviy qashshoqlik avj olayotganligi va ular bu salbiy jarayonning oldini olishni yana boshidan boshlash rejalari haqida bosh qotirayotganliklarini iisobga oladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan jamiyatda amalga oshiriladigan barcha isloiotlarni uyg'un ravishda olib borish zarurligi haqida ishlab chiqqan va amaliyotga tadbiiq qilgan kontseptsiyasining amaliy ahamiyati yana yaqqolroq namoyon bo'lishini ko'rish mumkin bo'ladi. Ma'naviyatning inson, millat, davlat va jamiyat iayotidagi o'rni haqidagi kontseptsiyalaridan yana biri milliy-ma'naviy rivojlanish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish va ma'naviy yangilanish hamda rivojlanish

² Karimov.I O'zbekistonning siyosiy. Ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.1993

kontseptsiasining juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Fikrimizcha, ularning ahamiyati quydagilardan iborat:

Birinchidan, bu kontsepsiya sobiq sho'rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy-ma'naviy madaniyatimizning inqirozga yuz tutganligini va uning sabablarini tushunishga;

Ikkinchidan, sobiq sho'rolarning o'tkazgan zo'ravonligi, zulmi va jinoyatkorona xatti-harakatlariga qaramasdan, milliy — ma'naviy merosimizning ildizlari mustaikam bo'lganligi uchun bu zo'ravonliklarga bardosh berib, o'z salohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganligini, tushunib etishga, xuddi shuningdek, ana shu omil mustaqilligimiz sharoitida kuch, qudrat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularimiz uchun manba bo'layotganligini tushunib etishga;

Uchinchidan, har bir millat, u son jihatdan kichikmi, yoki kattami undan qat'i nazar mustaqillik ularning har biri uchun suv va iavodek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatning milliy-ma'naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlantirishga va keyingi avlodga etkazish baxtiga muyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizning mustaqillikdek ulug' ne'matni saqlab qolishi va yanada mustahkamlashi uchun fidoiylilik ko'rsatishi ma'naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban iis etishga imkon berishiga;

To'rtinchidan, milliy-ma'naviy tiklanishning mohiyatini, «ma'naviyat» tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini bilib olishga, uni rivojlantirish uchun merosimizni chuqur o'zlashtirish, tinmay izlanish, ma'rifat, fan-texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o'zlashtirish hamda Prezidentimizning bugungi taraqqiyotimizni ta'minlaydigan «Kuch — bilim va tafakkurda»- degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan kontseptual g'oyasiga izchillik bilan amal qilishimizga;

Beshinchidan, milliy mustaqilligimizni asrash va mustahkamlash, isloiotlarni amalga oshirish jarayonida milliy-ma'naviy tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko'lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummilliy safarbarlik

harakatini avj oldirishda fidoiylilik ko`rsatish zarurligini anglashimizga;

Oltinchidan, mamlakatimiz yoshlarining milliy-ma'naviy tiklanish borasida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishga, ularda milliy g'urur, iftixor, fidoyilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi oliyjanob fazilatlarni shakllantirish — mustaqilligimizni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib etishimizga;

Etinchidan, milliy istiqlol g'oyasining ma'no va mazmunini chuqur anglashimizga, mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ma'naviy yangilanishimiz va rivojlanishimiz borasidagi strategik vazifalarimizning asosiy yo`nalishlarini va ko`lamini chuqur bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda fidoiylilik ko`rsatishimizning ahamiyatini tushunib etishimiz zarurligi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish kontseptsiasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati faqat yuqorida ko`rsatilganlar bilan cheklanmaydi. Uning xalqaro ahamiyati ham nioyatda kattadir. Unda ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda totalitarizmdan qutulib demokratik jamiyatni qurish tomon borayotgan bir qator mamlakatlarda ham milliy-ma'naviy tiklanish uchun katta amaliy ahamiyatga molikdir.

Zero, Rossiya fanlar akademiyasi akademigi A.N. Yakovlev ta'kidlagandek, "Islom Karimov o'tmishni kelajak bilan bog'lash asosida mamlakatni modernizatsiya qilish — zamonaviy tarzda taraqqiy ettirish yo'lini tanladi. Bu maqsadga xizmat qiladigan tizim va tarmoqlar faoliyatining samaradorligini, avvalo, muayyan davlatning mavjud shart-sharoiti, muayyan xalqning vorislik xususiyatlariga tayanadigan, ayni paytda kelajakka yo'naltirilgan ijtimoiy-madaniy an'analarga bog'liq ekanini u chuqur angladi".¹⁰ Shuning uchun ham O'zbekistoning milliy — ma'naviy tiklanishi borasidagi yutuqlari xalqaro ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish kontseptsiasi izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

¹⁰ Qaytadan kashf etilgan mamlakat. // Xalq so'zi, 2001 yil, 9-fevral.

Ma'lumki, o'zbek xalqi 130 yilga yaqin mustamlakachilik istibdodi ostida yashadi. Bu davr mobaynida uning milliy-ma'naviy merosi poymol etildi, tarixi soxtalashtirildi, ilmiy, madaniy, binobarin, ma'naviy merosga nigilistik qarash iukm surib ularni o'rganish cheklab qo'yildi. Xalqimizning ongi sal bo'lmasa ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviyatsizlik, nopoklik va yovuzlikka qarshilik ko'rsatolmay yuvvosh yashayverishga ko'nikib qolayozgan edi. Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z tarixiy-ma'naviy merosidan to'laqonli, emin-erkin foydalanish imkoniyatidan mairum bo'lib keldi.

Ma'naviyatimizga nisbatan bunday adolatsiz siyosatning salbiy oqibatlari va uni bartaraf etish vazifalari haqida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida: "Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, aiolining kundalik eitiyojlariga bevosita daxldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson iayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan iisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmashligimiz kerak"¹¹ligini ta'kidlash bilan birga, bu boradagi ishlarimiz nimalardan iborat bo'lishligi haqida quyidagi fikrlar bildirgan:

"Birinchi navbatda milliy ma'naviyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz — shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish"¹²dan iborat.

Faqat mustaqillikka erishishimiz sharofati tufayligina ma'naviy merosimizni, ko'ina va navqiron tariximizni o'rganish, jahon tsivilizatsiyasidagi munosib o'rnimizni tiklash va demokratik jamiyat qurishdek baxtga musharraf bo'ldik.

Bunday imkoniyatlarni qo'lga kiritishimizda xalqimizning sevimli farzandi,

¹¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008, 78-bet.

¹² O'sha joyda.

ulkan davlat va siyosat arbobi, etuk olim, vatanparvar va millatparvar inson Islom Karimovning etakchilik va rahbarlik qobiliyati asosiy rol o'ynadi.

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyingi yillar ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik vujudga keltirildi, bozor munosabatlariga o'tib bormoqdamiz, milliy-ma'naviy poklanish va tiklanishimizning murakkab vazifalarni vazminlik bilan amalga oshirmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning milliy ma'naviy tiklanishimiz borasida qilgan xizmatlari haqida fikr yuritganda, ularning kontseptual g'oyalarni ishlab chiqish bilan bir qatorda ularni amalga oshirish borasida qilayotgan katta xizmatlarini ham alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Jumladan, 1994 yildayoq respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida farmon chiqargani, uning faoliyatini takomillashtirish haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotganini aytish joiz. Mustaqillik yillarida ma'naviy merosimiz rainamolari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi va etilmoqda. Chunonchi, Baiouddin Naqshbandning 675; Najimiddin Kubroning 850; Imom al-Buxoriy iazratlarining 1225; Aimad al-Farg'oniyning 1200; Jaloliddin Manguberdining 800; Amir Temurning 660; Mirzo Ulug'bekning 600 yillik tavallud kunlari; "Alpomish" dostoni va Xorazm ma'mun akademiyasining 1000 yilliklari nishonlandi.

Mustaqillik yillari Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilinib ko'p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to'rt jildlik iadislari; Xoja Aimad Yassaviyning "Iikmatlar" to'plami; ko'plab Qur'oni Karim sharilariga oid kitoblar chop etilganligini va ulardan xalqimiz baxramand bo'layotganligining guvoii bo'lib turibmiz.

Mustaqillik yillari Iydi Ramazon va Qurbon Iayit kunlari diniy qadriyatlarimizning bayrami sifatida nishonlanmoqda. Navro'z umumxalq bayrami sifatida xalqimiz iayotida mustaikam o'rin oldi. Har yili 3000 dan ortiq vatandoshlarimiz muborak iaj safarlarini ado etmoqdalar. Mustaqillik yillari

ko'plab masjid va madrasalar ta'mirlandi, yangilari barpo etildi.

Mustaqillik tufayli milliy istiqbolimiz qurbonlari Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqalarning nomi tiklandi, asarlari chop etildi, ular tavallud topgan kunlar umummilliy bayram sifatida nishonlandi. Qatag'on yillarida Vatanimiz mustaqilligini ta'minlash yo'lida qurbon bo'lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shairida Shaiidlar iiyoboni barpo etildi.

Uzoq tariximiz, boy madaniyatimiz, serqirra ma'naviyatimizdan guvohlik beruvchi Xiva, Buxoro va Termiz shaharlarining 2500; Qarshi shahrining 2700; Marg'ilonning 2000 yilliklari katta tantanalar bilan nishonlandi.

Shuning bilan bir qatorda milliy-ma'naviy tiklanish borasida ko'lami jihatidan juda katta vazifalar turibdi. Biz millatimiz tarixi va merosini chuqur o'rganishimiz lozim bo'ladi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz».¹³ Milliy-ma'naviy tiklanish borasida erishgan yutuqlarni xalqimiz adolatli ravishda Prezidentimiz nomi bilan bog'laydi.

Milliy-ma'naviy tiklanishimiz borasida Prezident tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar quyidagi ilmiy jihatdan yangi nazariy kontsepsiya yaratganligida namoyon bo'ldi. Ular:

a)milliy-ma'naviy tiklanishimizning ilmiy-nazariy kontsepsiyasini ishlab chiqqanligi va istiqbolda ma'naviy taraqqiyotimizning XXI asrdagi vazifalarini belgilab berganligida;

b)milliy-ma'naviy tiklanishning mamlakatimizning totalitarizmdan demokratik jamiyatda o'tish sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab berganligida va uning faqat milliy, ijtimoiy-ma'naviy tafakkurimizda emas, shuning bilan birga umumijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi yo'nalish boshlab berganligida ham namoyon bo'ladi.

¹³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. –T.: “Sharq” 1998, 18-bet.

Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan milliy-ma'naviy sohadagi barcha ishlar xalqimizning qaddini ko'tarmoqda, o'zligini anglashga va mamlakatimizning rivojlanishiga xizmat qilmoqda, ma'naviyatimizni mustaikamlamoqda.

Shuning uchun ham u ishlab chiqqan kontseptual g'oyalarini chuqur o'zlashtirish va uni real hayotimizga tadbiq qilishda fidoyilik ko'rsatish mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta'minlashda katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy-ma'naviy tiklanishimizning ahamiyati haqida fikr yuritganda ma'naviyatning jamiyatimiz taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi o'rni haqida Prezidentning "Barchamiz oddiy bir xaqiqatni yana bir bor chuqur anglab etishimiz shart. Ma'naviyat soiasida bo'shliq bo'lmaydi"¹⁴, - degan ko'rsatmasidan kelib chiqadigan bo'lsak ma'naviyatga katta e'tibor bilan qarashimiz zaruriyati kelib chiqadi. Ma'naviyatni yuksaltirish yo'li bilan yoshlarni komil inson etib tarbiyalash vazifasini ado etishimiz mumkin bo'ladi. «Biz, -deb ta'kidlaydi Prezidenti Islom Karimov, - farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo'lgan tasirlardan iimoya qilishimiz, ularni iayotga, yon-atrofdan yuz berayotgan voqea — iodisalarga daxldorlik xissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, iymon — e'tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim»¹⁵

Bunday vazifani amalga oshirish yana ma'naviyat omiliga borib taqaladi. Uni qanchalik rivojlantirsak O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan qo'yilgan ana shu vazifalarni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

¹⁴ Karimov I.A. Inson manfaatlari ustvorligin ta'minlash barcha isloiat va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir – Xalq so'zi, 2008, 9-fevral.

Qarang: Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" 12-bet

¹⁵ O'sha joyda.

1.2. Milliy an'ana va qadriyatlarni e'zozlash yo'lida O'zbekiston -YuNESKO xamkorligi.

YuNESKOning madaniyat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari – madaniy moddiy va nomoddiy merosni asrash va kelajak avlodlarga etkazish, madaniy turfaxillikni targ'ib etish va tinchlik madaniyatini insonlar ongiga singdirish maqsadida madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish.

Dunyo miqyosida umumbashariy qadriyat deb topilgan madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish va saqlash YuNESKOning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish YuNESKO tomonidan 1972 yilda qabul qilingan Umumjahon madaniy va tabiiy meroslarni muhofaza qilish to'g'risidagi konventsiyada o'z aksini topgan. Konventsiyaga a'zo-davlatlar o'zlarining milliy hududlarida mavjud bo'lgan tarixiy meroslar nomzodini Butunjahon meroslar ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro konventsiyaga 1993 yilda qo'shilgan.

Mazkur konventsiya doirasidagi Butunjahon meroslar ro'yxatiga quyidagi madaniy meros obidalari kiritilgan:

- ■ Ichan qala (1990 yil);
- ■ Buxoro shahrining tarixiy markazi (1993 yil);
- ■ SHahrisabz shahrining tarixiy markazi (2000 yil);
- ■ Samarqand – madaniyatlar chorrahasi (2001 yil).

Mahalliy mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida YuNESKOning moliyaviy ko'magi asosida madaniy obidalarni saqlash sohasida O'zbekistonda bir qator tadbirlar tashkil etilgan:

- ■ «Markaziy Osiyo davlatlarida madaniyat sohasiga oid YuNESKO xalqaro konventsiyalari» mavzuidagi mintaqaviy anjuman (Toshkent, 1995 yil, sentyabr);
- ■ «Markaziy Osiyo davlatlarida madaniyat sohasidagi sarmoyalar» mavzuidagi xalqaro anjumanlar (Toshkent, 1996 yil, sentyabr; Toshkent, 1997 yil, sentyabr);

■ ■ «An'anaviy kulolchilik san'atini tiklash bo'yicha xalqaro anjuman» (Samarqand/Buxoro, 2000 yil 6-9 iyun). Arxeologiya, milliy me'morchilik va amaliy san'at, O'zbekiston madaniy obidalarini saqlash sohalari bo'yicha bir qator nashrlar (elektron shaklida ham) chop etildi. SHu jumladan, «O'zbekiston sopolchilik san'ati», «Markaziy Osiyo an'anaviy kulolchiligi», «O'zbekiston me'morchiligida sopolning o'rni» nashrlari¹⁶;

■ ■ «Madaniy yodgorliklarni saqlashda yer ostidagi suvlarning salbiy ta'siri» mavzuida mintaqaviy anjuman (Samarqand va Buxoro, 2000 yil 14-18 iyun)¹⁷;

■ ■ Xom g'isht va paxsadan bunyod bo'lgan Markaziy Osiyo madaniy yodgorliklarini saqlash bo'yicha uch yillik dasturni ishlab chiqishga bag'ishlangan mintaqaviy anjuman (Xiva, 2004 yil 24-29 aprel);

■ ■ «Qadimiy Xorazm oltin halqasi» mavzuidagi ilmiy anjuman va Orol bo'yi havzasida madaniy turizmni rivojlantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlar tashkil etildi (Nukus/Bo'ston/Xiva, 2005 yil, iyun). Ilmiy anjuman tavsiyalari asosida sayohatchilar uchun qo'llanma va Xorazm tarixi bo'yicha monografiya nashr etildi;

■ ■ Markaziy Osiyo va Afg'onistonda xom g'isht va paxsadan bunyod bo'lgan obidalarni saqlash bo'yicha amaliy mashg'ulot (Ayoq qala, 2006 yil, sentyabr);

■ ■ «Ipak yo'li bo'ylab joylashgan madaniy obidalar» seriyali nomzodlarini tayyorlash bo'yicha mintaqaviy anjuman (Samarqand, 2006 yil, oktyabr).

YuNESKO/Yaponiya jamg'armasining moliyaviy ko'magi asosida, Toshkentdagi YuNESKO vakolatxonasi orqali, Fayoz Tepadagi buddaviylik ibodatxonasini saqlash loyihasi amalga oshirildi. Termiz shahar hududidagi madaniy obidalarni jug'rofiy ma'lumot tizimiga (GIS) asoslangan boshqaruv rejasi ishlab chiqildi.

Nomoddiy ma'naviy meros sohasidagi quyidagi tadbirlar YuNESKO bilan hamkorlikda o'tkazilgan:

¹⁶ www.unesco.org/publishing

¹⁷ Habibullaev N., Alimov O'. O'zbekiston madaniyat va san'ati dunyo e'tiborida //Moziydan sado, 2000 yil, 1-2-sonlar.

■ ■ «Folklori va an'anaviy madaniyatni saqlash» bo'yicha mintaqaviy anjuman (Toshkent, 1998 yil oktyabr);

■ ■ 2002-2005 yillarda «Boysun bahori» folklor festivallari va «Boysun madaniy merosi» mavzusidagi mintaqaviy ilmiy anjuman (2005 yil 19-21 may, Boysun);

■ ■ 2005-2007 yillarda (YuNESKO/YAponiya jamg'armasi ko'magida) amalga oshirilgan Boysun madaniy makoni va SHashmaqom musiqasi bo'yicha hujjatlashtirish loyihalari;

■ ■ 2004-2005 yillarda YuNESKOning Qatnashuv dasturi doirasida «Ipak yo'li hikoyalari» va «Ipak yo'li rivoyatlari» kitoblari chop etildi;

■ ■ Har yili Xalqaro ona tili kunini nishonlanishiga bag'ishlangan davra suhbatlari tashkil etiladi (21 fevral);

■ ■ Nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha shaharlararo hamkorlik tarmog'i muvofiqlashtirildi (2005-2007 yillar).

YuNESKO Bosh anjumanining 32-sessiyasida Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konventsiya qabul qilindi (2003 yil). Mazkur konventsiya kuchga kirishidan avval YuNESKO tomonidan Insoniyatning og'zaki va ma'naviy merosi durdonalari nomli dasturi 2001-2003 yillarda amalga oshirilgan.

Hozirgi globallashuv jarayonida yirik xalqaro tashkilotlarning dunyoda kechayotgan siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi o'rni va ahamiyati tobora yuksalib bormoqda. Shu ma'noda aytganda, bugun fan, ta'lim va madaniyatning ishonchli himoyachisi bo'lmish YuNESKOning jahon tashkilotlari o'rtasidagi nufuzi ancha yuqori hisoblanadi.

Nizomi 1946 yilning 4 noyabrida rasman kuchga kirgan ushbu tuzilmaning bosh maqsadi jahon xalqlarining fan, ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorligini kengaytirish asnosida tinchlik hamda xalqaro xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shishdan iborat.

Uning milliy madaniyatlarni qo'llab-quvvatlash, dunyoviy meros

hisoblangan boyliklarni asrab-avaylash, shuningdek, rivojlanayotgan davlatlar kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirish, ekologik tadqiqotlar uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzishga ko'maklashish borasidagi ishlari alohida tahsinga loyiq. Zero, birinchi prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, YuNESKOning noyobligini biz, eng avvalo, sayyoramizdagi xalqlarning o'tmishi va bugungi kuniga bir xil hurmat hamda munosabatni saqlab qolgan holda, o'ziga xos va betakror milliy madaniyatlar, jahon tsivilizatsiyasi yutuqlarini keng namoyish etish uchun go'zal imkoniyatlar yaratilayotganida ko'ramiz.

Mamlakatimiz 1993 yilda YuNESKOga a'zo bo'lgan. 1996 yilda Toshkent shahrida mazkur tashkilotning vakolatxonasi ochilgan. O'tgan qisqa davrda ikki tomonlama mustahkam hamkorlik yo'lga qo'yilib, yangi ufqlar ochildi. Xususan, qadimiy shaharlarimiz, tarixiy obidalarimiz, osoriyotlarimiz, yozma va og'zaki xalq ijodiyoti, umuman, o'zbek xalqining boy madaniy merosini ko'z qorachig'idek asrash hamda kelajak avlodga bekamu ko'st yetkazish yo'lida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni YuNESKO yuqori baholaydi.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida Vatanimizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi, milliy qadriyatlar tom ma'noda qayta ko'z ochdi. Madaniy va tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar ta'mirlandi, obod etildi. Ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganishga e'tibor kuchaytirildi. Ilm-fan, aloqa va axborot sohasida ham qator yutuqlar qo'lga kiritilayapti.

Shubhasiz, 1996 yilning aprel oyida birinchi yurtboshimizning YuNESKO Bosh qarorgohiga tashrifi, 1998 yil noyabrida YuNESKO Ijroiya Kengashining yakunlovchi majlisiga Toshkent shahri mezbonlik qilgani o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirdi. Ta'kidlash joizki, MDH mamlakatlari orasida birinchi bo'lib poytaxtimizda o'tkazilgan tashkilot Ijroiya Kengashining yakunlovchi majlisida dunyo madaniyati sohasidagi muhim hujjat — "Jahon madaniyati va YuNESKOning a'zo davlatlardagi faoliyati" nomli Toshkent deklaratsiyasi imzolandi.

Albatta, mazkur tashkilot vakolatxonasining yurtimizdagi samarali

faoliyati ham munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Chunonchi, u O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari va bir qator tegishli idora hamda jamoatchilik tashkilotlari bilan birgalikda qator loyihalarni ro'yobga chiqarayotir. O'qituvchilar malakasini oshirish, o'rta ta'lim tizimining yaxlit ma'lumotlar bazasini yaratish, ayniqsa, ta'lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish jabhasidagi ijobiy natijalar shular jumlasidandir. O'zbekistondagi bir qancha oliy ta'lim muassasalarida bugun YuNESKO kafedralari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2009 yil 1 apreldagi "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimida yuqori texnologiyali teleradio uskunalari bilan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1088-son Qarorining 8-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi "2010 – 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-son qarorining 41-bandi ijrosini ta'minlash, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda xalq ijodiyotining folklor-etnografiya yo'nalishlarida olib borilayotgan an'analarni tiklash, havaskorlik san'ati sarchashmalaridan xalqimizni bahramand qilish, yoshlarni xalq ijodiyotining folklor san'atiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish hamda nomoddiy madaniy merosni saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilar faoliyatini keng targ'ib etish maqsadida, "O'zbekiston" teleradiokanali davlat unitar korxonasi buyurtmasi asosida "O'zbekiston MTRK Media markazi" Davlat korxonasi pavilonlarida 2011 yil dekabr va 2012 yil aprel oylarida O'zbekiston Milliy teleradikompaniyasi hamkorligida "Ko'hna zamin ohanglari" Respublika folklor san'ati telefestivali o'tkazildi¹⁸.

Ma'lumki, madaniyat rivoji hamisha davlatlar va millatlararo do'stlik, hamjihatlik, osoyishtalik va farovonlikni yuksaltirishga xizmat qilib kelgan. Binobarin, mazkur sohada ham davlatimiz YuNESKO bilan yaqindan hamkorlik

¹⁸ Республика халқ ижодиёти ва маданий-маърифий ишлар илмий-методик ҳамда ахборот маркази ахборотномаси. №31, 2012. – Б.3.

qilmoqda. Bu borada davlatimizning Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish Konventsiyasiga qo'shilishi orqali mustahkam asos qo'yildi. Mazkur xalqaro hujjatga muvofiq, ba'zi geografik joylar xalqaro muhofazaga olindi. Yurtimizda bunday tarixiy maskanlar ko'pligi bugun hech kimga sir emas. Bunday noyob hududlar sayyohlaru dunyo xalqlari e'tiborini mudom o'ziga jalb etib kelmoqda. Xususan, Xivadagi Ichanqal'a, Samarqandning tarixiy obidolari, Buxoro, Shahrisabz shaharlari va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalarga YuNESKO tomonidan shunday yuksak maqom berilgan. Ayni chog'da yurtimizda saqlanayotgan Usmon Qur'onining asl nusxasi "Jahon xotirasi" ro'yxatidan o'rin olgan.

O'zbekiston Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konventsiyani ratifikatsiya qilgani ham boy tariximiz, rang-barang urf-odatlarimizni global miqyosga olib chiqishga zamin yaratdi. Pirovardida Navro'z bayrami, "Katta ashula" qo'shiqlari, Boysun folklori va "Shashmaqom" bashariyatning nomoddiy meroslari ro'yxatiga kiritildi. Umuman, bugungi kunga kelib, diyorimizdagi to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy yodgorliklar umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YuNESKO ro'yxatidan o'rin olgani tariximizga bo'lgan hurmat-ehtirom ifodasidir.

Bu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida dunyo ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimiz yubileylari, ko'hna shaharlarimiz sanalarini nishonlash, nufuzli madaniy tadbirlar o'tkazishda YuNESKO faol qatnashib kelayotganini ham alohida qayd etib o'tish joiz.

Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining tashkil etilishi o'zaro hamkorlikda yangi sahifa ochdi. Chunki mazkur ajoyib tadbir dunyoning barcha qit'asidagi o'nlab davlatlar vakillariga har ikki yilda Samarqand shahriga tashrif buyurib, o'z iste'dodlarini namoyish etish imkoniyatini berayapti. Bu xalqlar o'rtasidagi ahillik va hamjihatlikni yanada ravnaq toptirishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Shak-shubhasiz, bu kabi e'tiroflar bizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Shular qatorida keyingi yillarda yurtimizda o'tkazilishi an'anaviy tus olayotgan "Asrlar sadosi" festivalining nufuzi ham tobora oshib borayotir. "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi hamda YuNESKO hamkorligida tashkillashtirilayotgan, milliy an'analarimizning o'ziga xos, betakror jihatlarini namoyon etuvchi ushbu tadbir bugungacha Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida muvaffaqiyatli tarzda o'tkazildi.

Unda ishtirok etgan yaponiyalik mehmon, "Strategic consulting Firm" kompaniyasi prezidenti Chinobu Fudjita taassurotlari bilan o'rtoqlashib, shunday fikr bildirgandi:

— O'zbekistonga bundan to'rt yil oldin kelgandim. Bu yurtning yuzida samimiyat nuri yog'ilib turadigan, keng qalb va mehmondo'st xalqi bor. Tabiati go'zal, taraqqiyoti barqaror, farovonligi yuksak mamlakatni kim ham ardoqlamaydi?! Shuning uchun ham agar imkoni bo'lganda O'zbekistonda butun umr yashab qolardim. Mamlakatingizda madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish asosida yurt nufuzini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinayotgani tahsinga loyiq. O'zida boy madaniy merosni ifodalagan "Asrlar sadosi" festivali ham buning yorqin tasdig'idir.

Mamlakatimizning mazkur tashkilot bilan fan, aloqa va axborot sohasidagi hamkorligi haqida ham ko'plab iliq fikrlar aytish mumkin. Xususan, 1995 yil 5 iyulda YuNESKOning "Buyuk Ipak yo'li — muloqot yo'li" dasturi asosida Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti tashkil etilgani, Urganch davlat universiteti hamda Bonn universiteti bilan hamkorlikda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan loyiha amaliyotga tatbiq qilingani, ommaviy axborot vositalari va axborot infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar shular jumlasidandir.

Yuksak umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish va targ'ib etish, ilmiy va madaniy merosni tiklash, asrab-avaylash hamda o'rganish, millatlararo va

dinlararo do'stlik, totuvlikni ta'minlash, ilm-fan, ta'lim, madaniyat sohalarida xalqaro hamkorlikni kengaytirish yo'lidagi ulkan xizmatlari uchun Prezidentimiz YuNESKOning ikki oliy nishoni — Abu Ali ibn Sino nomidagi hamda “Borobudur” oltin medallari bilan taqdirlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 222-sonli hamda 2011 yil 23 fevraldagi “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 47-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida 2012 yil 29 fevral kuni Toshkent shahridagi Grand Nur mehmonxonasida “O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosini hujjatlashtirish” mavzusida Respublika o'quv-seminari bo'lib o'tdi.¹⁹

Mazkur o'quv-seminar Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, YuNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi nomoddiy madaniy merosi bo'yicha xalqaro axborot va hamkorlik markazi (IChCAP), YuNESKOning Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti (IICAS) hamda YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Madaniyat va sport ishlari vazirligi Ijodkor yoshlar bilan ishlash, xalq ijodiyoti va havaskorlik san'atini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i B.Durdiev Respublika o'quv-seminarini ochib berib, uni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad nomoddiy madaniy meros bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Davlat dasturlari ijrosini ta'minlash va nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini inventarizatsiya qilish bo'yicha ishtirokchilarga kerakli ma'lumotlarni berishdan iboratligini aytib o'tdi. Mazkur seminar uch bo'limda tashkil etilib, birinchi bo'lim O'zbekistonda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konventsiya” talablarining bajarilishi deb nomlandi.

A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti kafedra mudiri,

¹⁹ Республика халқ ижодиёти ва маданий-маърифий ишлар илмий-методик ҳамда ахборот маркази ахборотномаси. №31, 2012. – Б.14.

professor O'.Toshmatov "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va saqlashning huquqiy asoslari" mavzusida nutq so'zlab, bu borada dunyo miqyosida va yurtimizda amalga oshirilayotgan harakatlar, O'zbekistonda huquqiy asosning yaratilishi hamda davlat dasturini yaratish bosqichlari haqida to'xtalib o'tdi.

Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi direktori v.b. Ch.Yuldashov "Konventsiya talablarini bajarish uchun mas'ul etib tayinlangan tashkilot va muassasalarning vazifalari" mavzusida so'zga chiqib, "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "2010 – 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli qarorni amalga oshirishda bajariladigan asosiy vazifalar va ularning ijrochilari bilan tanishtirdi. Davlat dasturiga binoan Markaz tomonidan o'tkazilgan tadbirlar va ularning monitoringi yuritilayotgani haqida ma'lumot berdi.

2012 yilning 21-24 noyabr kunlari Samarqand shahrida "YuNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritiladigan nomzodlarni tayyorlash" mavzusida sub-mintaqaviy seminar bo'lib o'tdi.²⁰ Seminar YuNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi, YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, YuNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi nomoddiy madaniy merosi bo'yicha xalqaro axborot va hamkorlik markazi (ICHCAP) hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi

Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi hamkorligida tashkil etildi. Unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Qoraqalpog'iston Respublikalari, Toshkent shahri va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi va yetkazuvchilar, ekspert-olimlar, soha mutaxassislari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdilar. Mazkur seminardan ko'zlangan asosiy maqsad YuNESKO Konventsiyasi, uni ratifikatsiya

²⁰ Республика халқ ижодиёти ва маданий-маърифий ишлар илмий-методик ҳамда ахборот маркази ахборотномаси. №31, 2012. – Б.86.

qilgan davlatlarning majburiyatlari va amalga oshirish yo'llari to'g'risidagi amaliy qo'llanmani o'rganish, nomoddiy madaniy meros namunalarini aniqlash va ro'yxatga kiritishda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga 2008 yilda qo'shildi va madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha amaldagi qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritdi. Hozirgi kungacha O'zbekiston Respublikasidan mazkur konvensiya doirasidagi Insoniyatning nomoddiy madaniy meros representativ ro'yxatiga quyidagi nomzodlar kiritilgan:

■ ■ «Boysun mintaqasi madaniy muhiti» (2001 yilda e'lon qilingan Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi);

■ ■ «SHashmaqom musiqasi» (2003 yilda e'lon qilingan Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi, O'zbekiston va Tojikiston qo'shma nomzod);

■ ■ «Katta ashula» (2009 yil);

■ ■ «Navro'z» (2009 yil, O'zbekiston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston, va Turkiya qo'shma nomzodi).

2009 yilda, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi UNESCO madaniy markazi (ASSYU, Tokio, YAponiya) tomonidan o'tkazilgan mahalla doirasida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishda eng yaxshi tajriba bo'yicha ikkinchi tanlovida O'zbekiston Respublikasi «Katta ashula» nomzodnomasi bilan ishtirok etdi. Tanlovning xalqaro hay'at qaroriga muvofiq «Katta ashula» nomzodnomasi g'olib deb e'lon qilindi.

Fond forum jamg'armasining tashabbusi bilan nomoddiy madaniyatni saqlash va avlodlarga yetkazib berish maqsadida tashkil etilgan keng qamrovli loyiha – «Asrlar sadosi» an'anaviy madaniyat festivali xalqimizning an'ana va udumlari, amaliy san'ati va milliy oshxonasi, xalq og'zaki ijodi kabi yo'nalishlarining turfa va xilma-xil ekanligini namoyon etadi. Ushbu festival har yili mamlakatimizning turli madaniy va tarixiy markazlarida turli mutahassislar, olimlar va xalqaro mehmonlar ishtirokida o'tkaziladi.

2008 yilda Festival SHahrisabz yaqinida, 2009 yilda esa Toshkent viloyatida o'tdi. 2009 yildan boshlab «Asrlar sadosi» ana'anaviy san'at Festivali YuNESKO xamkorligida o'tkazilmoqda. 2010 yili Festival Xivada Ichan-Qal'a tarixiy yodgorligi hududida o'tkazildi. 2011 yili «Asrlar sadosi» Buhoro shahrida bo'lib o'tdi. 2012 yilda "Asrlar sadosi" an'anaviy madaniyat festivali Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanidagi qadimiy Tuproqqal'a yodgorligida o'tkazildi. Oltinchi "Asrlar sadosi" an'anaviy madaniyat festivali 2013 yil 4-5 may kunlari Navoiy viloyatining Sarmishsoy qishlog'ida bo'lib o'tdi²¹.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusiga binoan, «SHarq taronalari» xalqaro musiqa festivali 1997 yildan buyon har ikki yil YuNESKO rahnamoligida Samarqand shahrida o'tkazib kelinadi. Ushbu festival jahonning yirik madaniyat tadbirlaridan biridir. SHu sababli, YuNESKO tashkiloti mazkur festivalni o'z rahnamoligiga olgan va barcha festival tadbirlarida ishtirok etib kelmoqda. Festival doirasida, YuNESKOkomagida xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish yaxshi an'anaga aylangan.

1999-2007 yillar davomida madaniyatlararo va dinlararo muloqot sohasida ilg'or tajribalar tadqiq etilgan edi. 2000 yil 13-16 sentyabr kunlari Toshkent shahrida «Dinlararo muloqot va tinchlik madaniyati» mavzusida xalqaro kongress, 2000 yil 18 sentyabr kuni Buxoro shahrida «Sufizm va dinlararo muloqot» mavzusida xalqaro simpozium tashkil etildi. Ushbu faoliyatning davomi sifatida Toshkent islom universiteti qoshidagi «Jahon dinlarini qiyosiy tadqiq qilish» YuNESKO kafedrasida «Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'naviyat va ma'rifat asoslari» mavzusidagi Markaziy Osiyo mintaqasi seminari va yoshlar forumi tashkil etildi (2005 yil, mart). SHuningdek, madaniyatlararo muloqot sohasida quyidagi tadbirlar YuNESKO, AYSESKO, Fanlar akademiyasi, Toshkent Islom universiteti, Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro YuNESKO instituti (Samarqand) va YuNESKOning Toshkentdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda amalga oshirildi: «Markaziy Osiyoda islom qadriyatlari: bag'rikenglik va

²¹ www.fondforum.uz

insonparvarlik» mavzusidagi xalqaro anjuman (Toshkent sh., 2007 yil 26-27 iyun); «O'zbekistonning islom madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rni» (Toshkent/Samarqand sh., 2007 yil 14-15 avgust); «Markaziy Osiyo va Xijoz o'rtasida ziyorat yo'llari» (Toshkent sh., 2007 yil 3-4 oktyabr)²².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi asosida, 1998 yilning 6 noyabr kuni YuNESKO Ijroiya kengashi 155-sessiyasining maxsus yig'ilishi Toshkent shahrida tashkil etildi. Ushbu yig'ilishda «Tinchlik madaniyati va a'zo-davlatlardagi YuNESKO faoliyati» nomli Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. 2001 yilda Buxoro shahri UNESCOning «Tinchlik shahri» mukofotini oldi.

YuNESKO rahnamoligidagi yubiley sanalar

1994-2009 yillarda YuNESKO bilan hamkorlikda nishonlangan yubiley sanalari:

- 1994 Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996 Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
- 1997 Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi;
- 1998 Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi va Axmad al Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi;
- 1999 «Alpomish» dostonining 1000 yilligi;
- 2000 Kamoliddin Bexzod tavalludining 545 yilligi;
- 2001 «Avesta» zardushtiylar muqaddas kitobining 2700 yilligi;
- 2002 Termiz shahrining 2500 yilligi va SHahrisabz shahrining 2700 yilligi;
- 2003 Abduxoliq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi;
- 2004 Qarshi shahrining 2700 yilligi;
- 2005 Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi;
- 2007 Marg'ilon shahrining 2000 yilligi;
- 2007 Samarqand shahrining 2750 yilligi;
- 2009 Toshkent shahrining 2200 yilligi²³.

²² www.unesco.org/publishing

²³ Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: “O'qituvchi”, 2012. – B.89-90

Jahon xotirasi dasturi 1992 yilda ta'sis etilgan. «Jahon xotirasi» dasturi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy qo'mitasi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi qoshida tashkil etilgan. «Jahon xotirasi» dasturining asosiy maqsadi dunyodagi noyob hujjatlarni asrash va ushbu butunjahon merosini keng ommaviylashtirish va undan foydalanishga imkoniyat yaratish. Hujjatli merosni saqlash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasi birinchi anjumani va «Jahon xotirasi» dasturi xalqaro maslahat qo'mitasining uchinchi uchrashuvi Toshkent shahrida tashkil etildi (1997 yil sentyabr/oktyabr oylari). O'zbekiston Respublikasining quyidagi hujjatli meroslari «Jahon xotirasi» dasturining xalqaro ro'yxatiga kiritilgan:

- ■ Muqaddas Usmon qur'oni (O'zbekiston musulmonlar idorasida saqlanadi);

- ■ O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti qo'lyozmalar to'plami. 2001-2004 yillar mobaynida, YuNESKO qatnashuv dasturi doirasida, «SHarq miniatyurasi» kitobining uch jildi nashr etildi va multimedia tayyorlandi. YuNESKOning 2007 yildagi qatnashuv dasturi doirasida Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasida qo'lyozmalarni asrash uchun raqamli studiya yaratishda yordam ko'rsatildi. YuNESKO Bosh direktori taklifiga binoan O'zbekiston mutaxassisi YuNESKOning «Jahon xotirasi» dasturi xalqaro maslahat qo'mitasiga 2005-2009 yillarda a'zo bo'lib tayinlandi.

Kommunikatsiyani rivojlantirish hukumatlararo dasturi axborot vositalarini rivojlantirish va axborot loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali barqaror taraqqiyot va demokratiya g'oyalarini targ'ib etishga yo'naltirilgan.

1997 yilda Toshkent shahrida Media manbai markazi tashkil etilishi ushbu dastur tomonidan qo'llab-quvvatlangan. 1998-2007 yillar davomida jurnalistikaga oid bir qator o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi va nashr etildi. «Jurnalistlar uchun innovatsion treninglar va o'quv dasturlar» doirasida bir qator o'quv treninglar tashkil etildi. Shu jumladan, «Axborot tayyorlashning nazariyasi va amaliyoti», «Internet jurnalistika», «Internetda mualliflik huquqlari», «Zamonaviy

jurnalistika», «O'zbekistonning multimedia axborot bazasi» va boshqalar. Har yili O'zbekistonda 3 may kuni matbuot erkinligi kuniga bag'ishlangan davra suhbatlari Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi. YuNESKOning Toshkentdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda yoshlar orasida OITV/OITSni oldini olish va giyohvand moddalarga qarshi kurash mavzusiga bag'ishlangan «Ipak yo'li» radio seriali loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. O'zbekiston YuNESKOning «Markaziy Osiyoda masofaviy ta'lim» mintaqaviy loyihasida faol qatnashib kelgan.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi «Axborot barcha uchun» dasturi 2000 yilda ta'sis etilgan. «Axborot barcha uchun» dasturining milliy qo'mitasi O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi qoshida tashkil etildi. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tashabbusi asosida 2003 yildan buyon, Toshkent shahrida «Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari» mavzusidagi sammitlar har yili tashkil etilmoqda. Mazkur sammitlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2008 yilning 23-24 oktyabr kunlari Toshkent shahrida «Yangi raqamli texnologiyalar sohasida global hamkorlik» mavzusida YuNESKO forumi tashkil etildi. Forum yangi raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash masalalariga bag'ishlangan edi. Ushbu YuNESKO Forumi natijalari bo'yicha 2009 yilning 11 may kuni O'zbekiston Milliy universiteti va Koreya politexnika universiteti o'rtasida «Raqamli texnologiyalar asosida masofaviy ta'limni rivojlantirish» bo'yicha hamkorlik Memorandumi imzolandi.

2009 yilda YuNESKO Bosh direktori o'rinbosari taklifiga binoan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori Moskva shahridagi YuNESKOning «Ta'lim sohasida informatika» nomli xalqaro institut boshqaruv kengashiga a'zo bo'ldi.

Xulosa

G'oya-inson tafakkurining mahsuli, milliy g'oya-millat tafakkurining mahsuli. Bu tushunchaning qay darajada ahamiyatga ega ekanligini mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, O'zbekiston Respublikasining 1-prezidenti hozirgi yorug' istiqbolimizning asoschisi I.A.Karimov juda yaxshi anglagan va buni xalqimizning yuragiga, qalbiga yetkazish uchun qator ishlarni amalga oshirgan edi.

Hozirgi globallashuv davrining nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifasi – O'zbekistonning milliy istiqlool mafkurasini targ'ib qilish juda katta aql-idrok va tafakkurni, ilmiy-nazariy bilimni, boy hayotiy tajribani, jamiyatning taraqqiyot qonunlarini bilishni, mamlakatimizning nafaqat o'tmishi va hozirgi davri, balki istiqbolini ham ilmiy fahmlashni taqozo etadi. Shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Hammamizga bir haqiqat ravshan bo'lishi lozim: biz mavjud rivojlanish sur'atlari bilan o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erisha olmaymiz. Bugun zamon o'zgarmoqda, uning talabi, oldimizga qo'yayotgan vazifalari tobora ortib bormoqda”²⁴ Bu ishlar tarixiy merosdan foydalangan holda milliy goyani targ'ib etish orqali ilmiy-nazariy, intellektual kuchlarning, siyosiy-ijtimoiy fanlari vakillari, davlat va jamoat arboblari, adabiyot ahli, xullas, jamiyatimizning turli tabaqalarining o'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakati natijasida amalga oshadi. Ze'ro, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov ta'kidlagani kabi: “O'z hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya, milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar”²⁵

²⁴ Mirziyoyev. Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak -T.: “O'zbekiston” 2017, 52-bet

²⁵ Karimov.I.A. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoyillar. Toshkent 2000 yil

Mustaqillik-tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam. Darhaqiqat, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha jabhalarda o'zining tenglar ichidagi o'rnini belgilab oldi va qator tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatilib, hamkorlikda istiqbolli rejalarni ketma-ket amalga oshirdi va hozir ham amalga oshirilayapti.

Ma'lumki, madaniyat rivoji hamisha davlatlar va millatlararo do'stlik, hamjihatlik, osoyishtalik va farovonlikni yuksaltirishga xizmat qilib kelgan. Binobarin, mazkur sohada ham davlatimiz YuNESKO bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Bu borada davlatimizning Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish Konvensiyasiga qo'shilishi orqali mustahkam asos qo'yildi. Mazkur xalqaro hujjatga muvofiq, ba'zi geografik joylar xalqaro muhofazaga olindi. Yurtimizda bunday tarixiy maskanlar ko'pligi bugun hech kimga sir emas. Ayni chog'da yurtimizda saqlanayotgan Usmon Qur'onining asl nusxasi "Jahon xotirasi" ro'yxatidan o'rin olgan.

Hozirgi globallashuv jarayonida yirik xalqaro tashkilotlarning dunyoda kechayotgan siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi o'rni va ahamiyati tobora yuksalib bormoqda. Shu ma'noda aytganda, bugun fan, ta'lim va madaniyatning ishonchli himoyachisi bo'lmish YuNYESKOning jahon tashkilotlari o'rtasidagi nufuzi ancha yuqori hisoblanadi.

Uning milliy madaniyatlarni qo'llab-quvvatlash, dunyoviy meros hisoblangan boyliklarni asrab-avaylash, shuningdek, rivojlanayotgan davlatlar kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirish, ekologik tadqiqotlar uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzishga ko'maklashish borasidagi ishlari alohida tahsinga loyiq. Zero, birinchi prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, YuNYESKOning noyobligini biz, eng avvalo, sayyoramizdagi xalqlarning o'tmishi va bugungi kuniga bir xil hurmat hamda munosabatni saqlab qolgan holda, o'ziga xos va betakror milliy madaniyatlar, jahon tsivilizatsiyasi yutuqlarini keng namoyish etish uchun go'zal imkoniyatlar yaratilayotganida ko'ramiz.

II BOB. O`zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning yoshlar intellektual salohiyatini oshirishga qo`shgan hissasi.

2.1. O`zbekistonda ta'lim sohasida o`tkazilgan islohotlarning bosqichlari va samaradorligi.

Mustaqillik yillarida demokratik va bozor o'zgarishlari talablariga mos ravishda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu nihoyatda muhim sohadagi chuqur islohotlar birinchi prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, ayni paytda ko'lami, qamrovi va maqsadlariga ko'ra o'ta noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX-sessiyasida qabul qilindi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarishning I-bosqichida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash, ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga qo'yiladigan zarur talablarni joriy etish ko'zda tutildi.

Mazkur Dasturga O'zR 09.04.2007 y. O'RQ-87-son Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, Uning tarkibidagi qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islox qilish omillari;
2. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari;
3. Kadrlar tayyorlashning Milliy modeli;
4. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari;
5. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar.

Dasturda "O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor

iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda,- deb qayd etilgan²⁶.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi²⁷.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarila boshladi. Birinchi bosqich: (1997-2001 yillar) — mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish. Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;
- pedagoglar va ilmiy pedagog kadrlar tayerlash xamda ularning malakasini oshirilishini zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;
- ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni

²⁶ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Тошкент, 1997. 2-бет.

²⁷ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Тошкент, 1997. 3-бет.

belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;

- o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayoni didaktik va axborot tahminotining yangi avlodni ishlab chiqarish va joriy etish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun zarur moddiy texnika, o'quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlashga budjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta'lim xizmati ko'rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

- ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqarish va joriy etish;

- xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek, respublika ta'lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

- kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borishi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) — milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqliklar kiritishga qaratildi. Bu borada majburiy umumiy o'rta va o'rta mahsus kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshirildi. Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlandi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirildi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettirildi. O'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlandi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi. Ta'lim xizmati ko'rsatish

bozorini shakllantirish mexanizmlar to'liq ishga solindi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) — to'plangan manbaini tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishdan iborat. Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayonining o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlandi. Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Kasb-hunar ta'lim muassasalarining mutsaqil faoliyat yuritishi va o'zini-o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish. Uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan komppyyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olindi. Umumiy o'rta ta'lim muassasasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Qonunlari Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda 203-sonli «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» qaroriga muvofiq tashkil etilmoqda va o'z navbatida yuqoridagi hujjatlarga hukumatning xalq ta'limi vazirligining Umumiy o'rta ta'lim muassasasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari» Qonunlari Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda 203-sonli «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» qaroriga muvofiq tashkil etiladi va o'z navbatida yuqoridagi hujjatlarga hukumatning xalq ta'limi vazirligining ta'lim-tarbiyaga oid qaror, farmoyish, buyruq va ko'rsatmalarini hamda muvaqqad namunaviy ustavga amal qilinadi.²⁸

Darhaqiqat, mamlakatimizda ta'lim shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor soha, deb e'lon qilingan. Mavjud ta'lim muassasalarini davr talablarini hisobga olgan holda isloh qilishdan tashqari MDH davlatlarida o'xshashi yo'q yangi turdagi o'quv

²⁸ М.Максимова. Миллий дастурнинг мақсади, вазифалари ва уни ёш авлод тарбиясидаги роли//фикр.уз/постс/талим_фан_тараққиёти/4436.хтмл

yurtlari – kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tashkil etildi. Shu tarzda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va har tomonlama ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish ta'limining noyob yaxlit tizimi shakllantirildi.

“Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilari mamlakatimizdagi umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida bo'lib, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari, ta'lim dargohlarida o'quvchi va talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA muxbirlari ularning xalqaro anjumandan olgan taassurotlari bilan qiziqdi. Yuras Banis, Vilnyus universiteti prorektori (Litva): – O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lim tizimi joriy etilgani ulkan muvaffaqiyatdir. Mamlakatingizdagi ta'lim dargohlari faoliyati bilan tanishar ekanman, barcha o'quv muassasalarida yoshlarning jahon standartlari asosida chuqur va puxta bilim olishi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun barcha qulay sharoitlar yaratilganiga guvoh bo'ldim. O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish uchun sohaga juda katta sarmoya jalb etilayotgani xorijda ham ma'lum. Bunday ezgu ishlar o'z samaralarini berib, O'zbekistonda g'oyat iqtidorli va yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlar shakllanishida muhim omil bo'layotir. O'zbekiston – buyuk olim va mutafakkirlar yurti. Dunyoda haqli ravishda “Algebra fanining otasi” deb tan olingan Al-Xorazmiy, shuningdek, astronomiya asoschilaridan biri – Mirzo Ulug'bek kabi jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' allomalar yetishib chiqqan. Toshkent juda xushmanzara va ajoyib shahar ekan. Temuriylar tarixi davlat muzeyida bo'lib, u yerda xalqingizning boy tarixi haqida hikoya qiluvchi rang-barang eksponatlarni ko'zdan kechirdik. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, maorif va madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etganiga guvoh bo'ldik. Xalqingizning istiqlol yillarida erishayotgan

chuqur insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan ulkan yutuqlari, milliy an'analarimiz bizda unutilmas taassurot qoldirdi. Rolan Blum, Fransiya Respublikasi Milliy assambleyasida "Fransiya-O'zbekiston" parlamentlararo do'stlik guruhi raisi: – O'zbekistondagi mustahkam moddiy-texnik baza, yangi texnologiya va uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy o'quv laboratoriyalari, boy axborot-resurs markazlari bilan ta'minlangan yuzlab kollej va litseylar, oliy o'quv yurtlari, muhtasham sport inshootlari yosh avlod kamoloti yo'lida xizmat qilayotir. Bu kabi xayrli ishlar berayotgan yuksak samaralarni biz Toshkent moliya instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda bir qator kasb-hunar kollejlari misolida ko'rdik. Mustaqillikka erishganidan buyon atigi yigirma yil o'tgan bo'lsa-da, o'tgan vaqt mobaynida ko'plab sohalarda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar samarasida O'zbekiston juda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyoti jadal taraqqiy etayotganini alohida qayd etishni istardim. Xarri Papapanagos, Makedoniya universiteti prorektori, professor (Gretsiya): – O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha umumiy o'rta ta'limdan to o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limgacha bo'lgan bo'g'inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o'z ichiga olgan yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Toshkent geodeziya va kartografiya kasb-hunar kolleji, 1-respublika tibbiyot kolleji va O'zbekiston Milliy universiteti kabi ta'lim muassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishib, bunga to'la amin bo'ldik. O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha 2011-2016 yillarga mo'ljallangan dasturni amalga oshirish uchun 277 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish ko'zda tutilganidan xabarim bor. Mamlakatingizda yalpi ichki mahsulotning 12 foizi ta'lim sohasiga yo'naltirilgani ushbu sohani rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralayotganidan dalolatdir. Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, ta'lim sohasini taraqqiy ettirishga sarflanayotgan bunday mablag' butun dunyoda eng

yuqori ko'rsatkichlardan biridir. O'zbekiston – yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlar mamlakati, fan va ta'lim sohasi eng rivojlangan davlatdir. Ivan Jarskiy, Belarus davlat texnologiya universiteti rektori (Belarus): – Oliy o'quv yurtlari yoshlarga zamon talablariga mos chuqur bilim berish bilan birga ularni mustaqil fikrlash, har qanday ishga ijodiy yondashish, eng murakkab ilmiy va ishlab chiqarish muammolarini hal etishga yangicha yondashuvlarni izlash va topishga o'rgatadi. Mamlakatingizda izchil tatbiq etilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga puxta bilim berish barobarida iqtisodiyotning yetakchi jabhalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgani, ta'lim sohasidagi islohotlar uzluksizligi, bosqichma-bosqichligi bilan ham ahamiyatlidir. Universitetimiz Toshkent kimyo-texnologiya instituti bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. O'zbekistonda ta'lim rivojiga nafaqat yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetkazuvchi asosiy yo'nalish, balki mamlakatning istiqboldagi salohiyati, kuch-qudrati, iqtisodiy ravnaqini belgilovchi ustuvor omil sifatida ham katta e'tibor qaratilayotgani tahsinga loyiq.

2.2. O'zbekistonning ta'lim sohasida tanlagan yo'li xorijliklar e'tifofida.

Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kunlari “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya²⁹ bo'lib o'tadi. Mazkur xalqaro anjumanda o'nlab mamlakatlardan yuzlab mutaxassislar va ekspertlar ishtirok etdi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA muxbirlari ularning ayrimlari bilan suhbatlashdi va ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga bergan e'tiroflarini keltirish lozim. *Parviz Morvij, Nyu-York davlat universiteti professori (AQSH):* – Mustaqillik yillarida O'zbekiston dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi. Bugun uning jahondagi obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda. Bu, ayniqsa, mamlakatingizda demokratiya va bozor iqtisodiyotiga

²⁹ Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kunlari “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya malumoti

oid islohotlarni amalga oshirish natijasida qo‘lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilishida, davlatingizning mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari berayotgan samaralarda o‘z ifodasini topmoqda. Men mutaxassis sifatida mamlakatingizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatib boraman. O‘zbekiston Respublikasida Prezident Islom Karimov rahbarligida demokratiya asoslarini mustahkamlashga, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga, xalq farovonligini muttasil oshirishga doimiy e‘tibor qaratilayotganini alohida ta’kidlashni istardim. O‘zbekistonda yoshlarga, ayniqsa, ularning ta’lim olishiga ko‘rsatilayotgan ulkan e‘tibor meni g‘oyat quvontiradi. AQSHda aksariyat talabalar o‘zlari tahsil olayotgan ta’lim dargohiga kam qatnaydi. Qolgan vaqt uylarida internet orqali darslarda ishtirok etadi. Bunday holga men mutlaqo qarshiman. To‘g‘ri, masofadan o‘qitish tizimi ayrim toifadagi yoshlar uchun qulay. Ammo bunday ta’lim tizimiga muhtoj bo‘lmagan talabalarni masofadan o‘qitish noto‘g‘ri yo‘l, deb o‘ylayman. Har bir talaba yoki o‘quvchi darslarda o‘zi ishtirok etishi, o‘qituvchi bilan bevosita muloqotda bo‘lmog‘i lozim. Ana shundagina u o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishadi. Shuni unutmaslik kerakki, har bir mamlakatning kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqning ertangi kuni qanday bo‘lishi bugungi yoshlarning qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

O‘zbekistonda ta’lim sohasini bosqichma-bosqich, aniq maqsadga yo‘naltirgan holda isloh qilish bo‘yicha uzoqni ko‘zlagan dasturlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”³⁰gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi³¹ mamlakatingizni ravnaq toptirishga, xalqingiz farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Yetuk mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ushbu hujjatlarning hayotga izchil tatbiq etilishi yoshlarning puxta bilim olishi, iqtidorini to‘la namoyon etishi, qobiliyatini

³⁰ O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

³¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

yuzaga chiqarishi, jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim omil bo'layotir. Bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatingizda ko'plab nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilgani buning dalilidir.

Gabriyele Mentges xonim, Dortmund texnika universiteti professori (Germaniya):

– O'zbekistonda fan-ta'lim, madaniyat, san'at, ma'naviyat va ma'rifat sohalarida erishilayotgan yutuqlardan o'rnak olsa arziydi. Mamlakatingiz bilan "An'analar modernizatsiyasi: O'zbekiston to'qimachiligi merosi madaniy va iqtisodiy manba sifatida" loyihasi doirasida bir necha yildan buyon samarali hamkorlik qilib kelyapmiz. Bu borada Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika instituti, Andijon mashinasozlik instituti hamda O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti bilan o'rnatilgan yaqin aloqalarimiz yaxshi samaralar berayotir. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash masalasiga qaratilayotgan katta e'tibor barcha sohalar, jumladan, to'qimachilik uchun ham yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim omil bo'lmoqda. Mamlakatingiz ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, talabalarning sifatli bilim olishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar yuksak samaralar berayotir. Aytish joizki, O'zbekiston milliy liboslarining tarixi, an'analari yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan. Mazkur loyiha O'zbekistonlik mutaxassislarning Germaniya, Germaniyalik soha vakillarining esa O'zbekiston san'at va madaniyat yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari faoliyati bilan yanada yaqinroq tanishishi, sohada fikr va tajriba almashish imkonini bermoqda. O'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash niyatidamiz.

Valeriy Nikiforov, Boltiq xalqaro akademiyasi boshqaruvi raisi, Boltiq psixologiya va menejment instituti senatining raisi (Latviya): – O'zbekiston Milliy universitetining 90 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar majmui Prezident Islom

Karimovning 2008 yil 9 apreldagi qarori bilan tasdiqlangan. Bu hujjat “Yoshlar yili”³² Davlat dasturi vazifalari hisobga olingan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, birinchi navbatda, yoshlarning mamlakatimizda, jumladan, ilm-fan va ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni ro‘yobga chiqarishda faol ishtirok etishini ko‘zda tutadi. Avgust oyida o‘tadigan “O‘zbekistonda oliy ta’lim va ilm-fan tizimini rivojlantirishda Milliy universitetning ro‘li” mavzuidagi xalqaro ilmiy konferensiya va mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlari talabalarining “Yoshlar – bizning bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi” shiori ostida o‘tadigan festivali asosiy voqealardandir. Bundan tashqari, “Yoshlik” shaharchasidagi Ma’naviyat va ma’rifat markazida, shuningdek, barcha viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlarida “O‘zbekiston Milliy universiteti – ilm-fan va ta’lim manbai” deb nomlangan ma’ruzalar o‘qiladi. Shuningdek, “Ta’lim jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolari” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya ham o‘tkaziladi. Universitetni bitirgan turli avlod vakillarining uchrashuvlari, ko‘plab madaniy va sport tadbirlari bo‘lib o‘tadi. Shu bilan birga, yubileyga tayyorgarlik ko‘rish doirasida universitet hududida o‘quv korpuslari, talabalar uylari va boshqa ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari davom ettiriladi. O‘zbekiston Milliy universitetining 90 yilligini keng nishonlash yoshlarimizning yangi bilimlarni egallashi muhimligi bilan bir qatorda Vatan oldida o‘z burchini teran anglaydigan fuqaro shaxsini shakllantirish va ma’naviy rivojlantirish zarurligini yanada chuqur tushunishiga yordam beradi. Yubileyga bag‘ishlangan tadbirlarning o‘tkazilishi mamlakatimizda yosh avlod to‘g‘risida ko‘rsatilayotgan katta g‘amxo‘rlik, O‘zbekistonda inson manfaatlarini ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligining yana bir yorqin dalili bo‘ladi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining keng ko‘lamli va serqirra faoliyati, katta xalqaro nufuzi mamlakatimizda yurtboshimiz rahnamoligida yangi jamiyat qurish borasida izchil amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligining yorqin

³² Prezident Islom Karimovning 2008 yil 9 apreldagi qarori “Yoshlar yili” Davlat dasturi

namunasidir. Bu borada ishlab chiqilgan noyob tizim buyuk ajdolarimizning boy ilmiy, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish, bugungi hamda istiqboldagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ikki muhim omilni kadrlar tayyorlash tizimida uyg'unlashtirish mamlakatimizda mustaqillik yillarida boshlangan buyuk ishlarni davom ettiradigan, buning uchun barcha zarur bilim, kuch hamda imkoniyatga ega yangi avlodni tarbiyalash yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Biz O'zbekistondagi tegishli vazirlik va idoralar, oliy o'quv yurtlari bilan ta'lim sohasining bank-moliya yo'nalishida bir necha yildan buyon samarali hamkorlik qilib kelyapmiz. Yurtingizda ta'lim sohasida o'tkaziladigan ko'rgazmalarda muntazam ishtirok etamiz. Ta'kidlash joizki, mamlakatingizda yoshlar ta'limi va tarbiyasiga berilayotgan e'tibor va o'z o'rnida O'zbekiston yoshlarining bu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgani tahsinga sazovor. O'zbekistonlik talabalarning ilmiy salohiyati juda yuqori ekanini alohida qayd etmoqchiman. Jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. Har qanday mamlakatning taraqqiyotini ta'minlash, avvalo, yetuk malakaga ega kadrlarga bog'liq. O'zbekistonda bu vazifa muvaffaqiyatli hal etilmoqda. Mamlakatingizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, qisqa fursatda yaratilgan, bugungi zamon talablariga javob beradigan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan tamomila yangi ta'lim tizimi yuksak e'tiborga loyiq.

Xartmann Libetrut, Amaliy fanlar universiteti professori (Germaniya): – O'zbekistonning to'g'ri tanlagan taraqqiyot yo'li, ayniqsa, ta'lim sohasida tobora oshayotgan salohiyati xorijda ham katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Boisi, ko'plab mamlakatlarda ta'limni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yurtingizda yosh avlodning puxta bilim olishi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat

umummilliy dasturi yurtinigizda iste'dodli yoshlarning o'z qobiliyatini to'la yuzaga chiqarishiga xizmat qilmoqda. Tashrif asnosida O'zbekistondagi maktab, kollej va oliy o'quv yurtlari faoliyati bilan yaqindan tanishamiz. Yoshlar uchun barpo etilgan o'quv maskanlarini o'z ko'zimiz bilan ko'rish imkoniga ega bo'lamiz. Bizning universitet Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti bilan hamkorlik qilib keladi. Bundan o'n ikki yil avval O'zbekistonga kelgan edim. Bu davr mobaynida mamlakatingiz tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketibdi. Yangi barpo etilgan muhtasham binolarni ko'rib lol qoldim. Konferensiya turli mamlakatlardan kelgan yirik olimlar hamda soha mutaxassislari bilan o'zaro fikr almashish imkonini beradi.³³

Jay Dev Agarval, Hindiston moliya instituti boshqaruvchilar kengashi raisi (Hindiston): – “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuidagi xalqaro konferensiya ko'plab sohalar qatori ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini taraqqiy ettirish borasida O'zbekiston erishgan muvaffaqiyatlarni o'rganish, chet ellik soha mutaxassislari bilan fikr va tajriba almashish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda Prezident Islom Karimov rahnamoligida yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularga puxta bilim berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan etib belgilangani yuksak samaralar berayotir. Davlatingiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilayotgan “Ta'lim to'g'risida”³⁴gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi³⁵ berayotgan samaralarni o'rganish va qo'llash boshqa mamlakatlar uchun ham ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. 2010 yili Toshkentda o'tkazilgan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisida qatnashgan edim. O'zbekistonda bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar samarasida mamlakatingizning tashqi iqtisodiy munosabatlari tobora mustahkamlanib, xalqaro maydondagi obro'-e'tibori muttasil yuksalmoqda.

³³ Manba: uza.uz sanasi: 15 Fevral 2012 12:17

³⁴ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

³⁵ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasidan o'rnak olsa arzigulik jihatlar g'oyat ko'p. Toshkent moliya instituti bilan bir necha yildan buyon samarali hamkorlik qilib kelyapmiz. Mazkur sohada aloqalarimiz jadal rivojlanayotgani bizni g'oyat quvontiradi. O'zbekistonlik talabalarning turli fanlarni o'rganishga katta qiziqishi, o'z iste'dodini amalda yuksak darajada namoyon etishi bizda doim havas uyg'otadi. Yuksak intellektual salohiyatga ega, intiluvchan va izlanuvchan, bilimga chanqoq O'zbekiston yoshlari bilan muloqotda bo'lib, mamlakatingiz kelajagi buyuk ekaniga yana bir bor amin bo'ldik.

Maykl Edelshteyn, Nyu-Jersi shtatidagi Ramapo kolleji direktorining o'rinbosari (AQSH): – Men atrof-muhit va ekologiya bo'yicha mutaxassisman. Mamlakatingizga o'tgan yili ham kelib, Mo'ynoq tumanidagi vaziyat bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgandim. Aytish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, O'zbekiston mintaqada ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatingizda Orolbo'yi ekologiyasini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, mintaqada sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish yo'lida olib borilgan ishlar o'z samarasini berayotganining guvohi bo'ldik. Sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kasb mahorati ham yuksak. Bularning barchasi, albatta, mamlakatingizda ta'lim tizimiga qaratilayotgan ulkan e'tibor samaralaridandir. Mamlakatingizdagi bir qator oliy ta'lim muassasalarida bo'lib, talabalar bilan suhbatlashdim. O'zbekiston yoshlarining shijoati, yuksak odobi, bilim olishga chanqoqligi, samimiyligi menda katta havas uyg'otdi. O'zbekistonning go'zal tabiati, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlaridagi tarixiy obidalar, zamonaviy binolar har qanday kishini hayratga soladi. Mazkur xalqaro anjuman kunlari O'zbekistonda fan-ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bilan yanada yaqinroq tanishayotganimdan, boy madaniyatingizdan bahramand bo'layotganimdan xursandman. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti”³⁶

³⁶ Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kunlari “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya

mavzuidagi xalqaro konferensiya O‘zbekistonda yuksak samaralar berayotgan ta’lim dasturi bilan yaqindan tanishish, turli mamlakatlar olim va mutaxassislari bilan o‘zaro fikr va tajriba almashish imkonini berayotganidan mamnunman.³⁷

Azmat Hayot Xon, Peshavor universiteti rektori (Pokiston):– Mamlakatingiz rahbari Islom Karimovning ta’lim sohasi rivoji, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga qaratayotgan ulkan e’tiborini mazkur xalqaro konferensiya misolida ham ko‘rish mumkin. Ma’lumki, har qanday davlatning mavqei undagi ta’lim tizimining qay darajada taraqqiy etayotgani hamda uning sifati xalqaro standartlarga qanchalik muvofiqligiga ham bog‘liq. O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilgan ishlar berayotgan yuksak samarlarni, to‘plangan boy tajribani o‘rganish va tatbiq etish boshqa mamlakatlar uchun ham juda foydali bo‘ladi. Mamlakatingizda joriy etilgan 12 yillik majburiy-bepul, uzluksiz ta’lim kasb-hunarga yo‘naltirilganligi va o‘quvchilarning qiziqishi asosida amalga oshirilayotgani o‘z samaralarini berayotir. Mamlakatingizda barpo etilayotgan zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan va muhtasham binolarga ega ta’lim muassasalari soni tobora ko‘paymoqda. O‘zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikka, ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarga havas qilsa arziydi. *Yu Mi Xa xonim, Sangshim tibbiyot-ta’lim jamg‘armasi prezidenti (Janubiy Koreya):* – Mazkur xalqaro konferensiya mavzuining dolzarbligi bilan dunyoning ko‘plab mamlakatlarida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Anjumanda ishtirok etib, o‘zim uchun ko‘plab zarur va foydali ma’lumotlar olishimga ishonaman. Tibbiyotda ta’lim sifati va darajasi eng yuqori pog‘onada bo‘lishi darkor. Buning uchun talabadan ko‘p mehnat, sabr va kuchli bilim talab etiladi. Boisi, bo‘lajak shifokorlar inson hayoti uchun mas’ul shaxsdir. Jamg‘armamiz Toshkent pediatriya tibbiyot instituti bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. O‘zaro hamkorlik loyihasiga ko‘ra, o‘zbekistonlik yosh shifokorlar Janubiy Koreyada malaka oshirish va u yerdagi shifoxonalarda amaliyot o‘tash imkoniga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston tibbiyot sohasida keng qamrovli tub islohotlarni amalga

³⁷ Manba: www.o'zbekiston ovozi.uz

oshib, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Mamlakatingizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholi tibbiy madaniyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani tahsinga sazovordir. 2011 yilning noyabr oyida tashkil etilgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola"³⁸ mavzuidagi xalqaro simpoziumning o'tkazilgani yurtning tibbiyotga qaratilayotgan yuksak e'tiborga yorqin misoldir. Mamlakatingizning Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi mukammalligi bilan ajralib turadi. Poytaxtingizdagi ko'plab litsey va kollejlarda faoliyati bilan tanishar ekanman, ta'lim sohasiga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va yuksak e'tibor samaralariga guvoh bo'ldim. Yana shunga ishonch hosil qildimki, O'zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati juda kuchli. Bu ham yurtning ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasidir. Tahsil olish uchun barcha zarur shart-sharoitga ega intiluvchan va izlanuvchan O'zbekistonlik yoshlarga havas qilsa arziydi.

Edgar Kloze, Brandenburg Texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash instituti prezidenti, professor (Germaniya): – O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida ta'lim jabhasida ham salmoqli natijalarni qo'lga kiritmoqda. Buni biz o'zbekistonlik yoshlarning yuksak intellektual salohiyati misolida ko'rdik. Qayd etish joizki, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Zotan, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni mustahkamlab bo'lmaydi. Biz Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent vrachlar malakasini oshirish va Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelamiz. So'nggi besh yil ichida institutimizda o'zbekistonlik bir qator talabalar malaka oshirdi. Ular ayrim qo'shma loyihalar ustida ish olib bordilar. Natijada ikki mamlakat uchun ham

³⁸ 2011 yilning noyabr oyida tashkil etilgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" mavzuidagi xalqaro simpozium

foydali bo'lgan turli yangi innovatsion g'oyalar shakllandi va amalga oshirildi. Aytish joizki, o'zbek talabalarining bilim olishga va til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi juda baland.

Savsan Noveir xonim, Versal shahridagi oliy arxitektura maktabi professori (Fransiya): – Uch yildirki, biz Toshkent arxitektura-qurilish instituti bilan hamkorlik qilib kelayotirmiz. Faol hamkorligimiz natijasi o'laroq, bir qator o'zbekistonlik yoshlar Fransiyada tahsil olmoqdalar. Ular qisqa fursatda Fransiyaning oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tizimi talablarini va fanlarni osonlik bilan o'zlashtirmoqda. Bu ularning bilim va intellektual darajasi juda yuqori ekanidan dalolatdir. O'zbekistonga ilk bor kelishim. Bu go'zal zaminda hukm surayotgan osoyishta hayot, farovonlik, tinchlik va barqarorlikka havasim keldi. Milliy va zamonaviy uslubni uyg'unlashtirgan mahobatli binolar, muhtasham inshootlarni ko'rib, xalqingizning me'morlik san'ati va bunyodkorlik salohiyatidan lol qoldim.³⁹

Bugungi kunda yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun olib borilayotgan g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) talaba yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularda mustaqillik tafakkurini, milly va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, yuksak axloq, huquqiy bilimlar, ma'naviy yetuklikni chuqur egallab, qonunlarimiz ustuvorligini tan oladigan, mehnatsevalik kabi fazilatlarni shakllantirish;

2) talaba yoshlarga ta'limning ijtimoiy-siyosiy afzalliklarini keng targ'ib qilish;

3) mustaqillikning bebaho ne'mat ekanini yoshlar ongiga chuqur singdirish, o'zida milly va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar davlatimizning siyosiy, madaniy birligini ta'minlaydigan asosiy omil ekanini chuqur tushuntirish;

³⁹ Manba: Uza.uz sanasi 2014 y. 12 yanvar

4) talaba yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda milliy g'oya, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy madaniyat, tarixiy, falsafiy-axloqiy meros, shaxs erkinligi va rivojining davlat tomonidan himoya qilinishining afzalliklari.

O'tgan 1991-2013 yillarda respublikamizda yoshlarga oid 100 ga yaqin qonun hujjatlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Shuni ta'kidlash joizki, bugun yurtimizda ta'lim jarayonini isloh etishda oliy o'quv yurtlar muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.⁴⁰

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida yurtimizda yangi avlod kadrlarini tayyorlash, iste'dodli yoshlar bilan ishlash masalalari yangicha g'oyaviy-siyosiy asosda, aniq samarali tizim bo'yicha yo'lga qo'yildi. Bunda, birinchidan, davlat va jamiyat qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy kabi sohalarda zamon talablariga javob bertadigan yangi avlod kadrlarini tayyorlashga alohida e'tibor berilib, bu boradagi islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ikkinchidan, yangi avlod kadrlari yangicha asosda, milliy g'oyamiz tamoyillariga tayangan holda tayyorlanmoqda. Uchinchidan, bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi negizida yurtimizda samarali milliy ta'lim modeli shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. To'rtinchi, tarmoq vazirliklariga qarashli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yangi avlod kadrlarini tayyorlash tizimi isloh qilinib, rivojlanib bormoqda. Beshinchidan, Davlat boshqaruvi akademiyasi, Tibbiyot akademiyasi, Qurolli kuchlar akademiyasi kabi zamonaviy ta'lim muassasalarida yangi avlod kadrlari bilan birgalikda, rahbar xodimlar, ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ham keng yo'lga qo'yildi.

⁴⁰ "Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш-мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шарти" мавзусидаги халқаро конференция материаллари.- Т.: "Ўзбекистон", 2012. 6-7-бетлар.

Xulosa

Mustaqillik yillarida demokratik va bozor o'zgarishlari talablariga mos ravishda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning bosqichma-bosqich qat'iy re'ja asosida amalga oshirilishi tezda o'z samarasini bera boshladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Yangi avlod kadrlari yangicha asosda, milly g'oyamiz tamoyillariga tayangan holda tayyorlanmoqda. Ze'ro, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart".

III-bob. Mustaqillik yillarida yoshlarga oid davlat dasturlarining qabul qilinishi va uning amaliy ahamiyati

3.1. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat dasturlarini tarixiy ahamiyati

Mustaqilligimiz tufayli fan, maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirildi. «Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi» - degan edi I.A.Karimov. Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturi tayyorlandi. 1997 yil 29 avgustda Respublikamizda ‘Ta'lim to'g'risidagi qonun’⁴¹ va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”⁴² qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi, dunyoviyligi ;
- ta'limda umuminsoniy, milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarning ustivorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar ta'lim olish imkoniyatlarining kengligi;
- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan holiligi.

1998 yil Avstraliyada kelgusi asr ta'limi istiqbollari bag'ishlangan «Osiyo - Tinch okean mintaqasida XXI asrda ta'lim muammolari» deb nomlangan xalqaro anjumanda ta'limni rivojlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturi faqat ikki davlat - AQSH va O'zbekistondagina mavjudligi ta'kidlandi.⁴³ Anjuman ishtirokchilari yangi ta'lim tizimimizga katta ishonch bildirdilar.

1993 yildan Prezidentimiz farmoniga binoan talaba va aspirantlarga maxsus stipendiyalar belgilandi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi(1992 yil 8 dekabr). Konstitutsiya barcha fuqarolar qatori yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy

⁴¹ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁴² Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

⁴³ 1998 yil Avstraliyada bo'lib o'tgan «Osiyo -Tinch okean mintaqasida XXI asrda ta'lim muammolari» xalqaro anjuman materiallari

va me'yoriy jihatlarini ham o'zida aks ettiradi. Jumladan, uning 41-moddasida: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"⁴⁴, 45-moddasida: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir"⁴⁵ deb belgilab qo'yilgani fikrimizning dalilidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishga jahon andazalari darajasida bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol miliy kadrlar ulkan hissa qo'shishini hisobga olib davlatimizda ko'p sonli nodavlat-notijorat tashkilotlarni vujudga keltirdi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirliga tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi, ularning muammolarini o'rganuvchi 15 ga yaqin nodavlat-notijorat tashkilotlar va jamiyatlar ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yoshlar tashkilotlari ro'yxati.

№	Tashkilotlarning nomlanishi.	Ro'yxatdan o'tgan sanasi.	Tashkilot faoliyatining maqsadi va vazifalari.
1	O'zbekistonning "Yoshlik" sport jamiyati.	31.01.2002 yil	Umumtalim maktablarida sport va jismoniy tarbiyani targ'ibot - tashviqot qilish va amaliy yordam ko'rsatish.
2	"Nurchi" sport - sog'lomlashtirish jamiyati.	21.05.1997 yil	Yoshlarimiz orasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot-tashviqot qilish.
3	"Sen yolg'iz emassan" Respublika ijtimoiy harakati.	22.11.2002 yil	Mehribonlik o'ylarida ta'lim-tarbiya olayotgan yosh bolalarga moddiy-ma'naviy, psixologik ko'mak berish.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda 9-bet T.2012y

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda 10-bet T.2012y

4	O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondi.	02.01.2003 yil	Davlatimizning sport va jismoniy tarbiya sohasidagi olib borayotgan siyosatini hayotga tatbiq etish va uni targ'ibot qilish.
5	"O'zbekiston madaniyati va san'ati" fondi.	24.12.2004 yil	Bolalar va voyaga yetmagan o'quvchilar huquq-manfaatlarini himoya qilish. Xalqlar va davlatlar aloqasini mustahkamlash.
6	"Umid qanotlari" Respublika markazi.	05.08.2004 yil	O'zbekiston yoshlarining OITS va narkomaniyaga qarshi kurash maqsadida amalga oshirayotgan harakatlarini qo'llab-quvvatlash. Shu maqsadni ko'zlovchi seminar va konferensiyalar tashkil etish.
7	Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish Respublika markazi.	21.10.2004 yil	Jismoniy va aqliy rivojlanmagan bolalarga, ularning oilalariga ijtimoiy, tibbiy yordam berish.
8	Respublika oily va o'rta maxsus tizimi o'quvchi-talabalarining "Talaba" sport assotsiyasi.	25.12.2002 yil	Mavjud sport bazasi ahvolini yaxshilash, kollej o'quvchilari, oily o'quv yurtlari talabalari orasida sport, jismoniy tarbiya, turizmni hamda milliy o'yinlarimizni rivojlantirish.
9	O'zbekiston		Yoshlarni birlashtirish,

	Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati..	07.05.2001 yil	ularning huquqini himoya qilish, yoshlarning jamiyatda munosib o‘rin egallashlari uchun ko‘mak berish hamda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot-tashviqot qilish.
10	“Oila va bolalar” nodavlat – notijorat tashkiloti.	01.03.2000 yil	Davolash va tashxis markazlarini tashkil qilish orqali jinsiy kasallikka chalingan yoshlarni davolash hamda ular orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot-tashviqot qilish.
11	“Biznes – shkola” nodavlat – notijorat tashkilot.	27.01.2003 yil	Kichik va o‘rta biznes hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan takliflar, biznes rejalar hamda Davlat dasturlarini hayotga tatbiq etishda ko‘maklashish.
12	“ Mehr nuri ” fondi.	2004 yil iyul	Ijtimoiy yo‘naltirilgan himoya, homiylik yordami, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirorlik va fermerlikni qo‘llab-quvvatlash.
13	“Umid” jamg‘armasi.	1997 yil yanvar	Iqtidorli talabalarning chet elda ta‘lim olishlarini uchun

Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yuqoridagi tashkilotlardan ayrimlari o'z faoliyatini tugatgan yoki boshqa tuzilma tarkibiga qo'shilgan. Bundan tashqari, Respublikaning hududiy bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgan tashkilotlar ham samarali faoliyat ko'rsatishmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi quyidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda:

- "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" Jamg'armasi;
- "Ayollar Kengashi" Jamoat birlashmasi;
- Elektron OAV Milliy Assotsiyatsasi;
- "Iste'dod" jamg'armasi;
- "Hayot" nodavlat notijorat tashkiloti;
- "Ziyonur" nodavlat notijorat tashkiloti;
- "Salomatlik plyus ekologiya" nodavlat notijorat tashkiloti;

Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh va iste'dodli pedagoglarni quvvatlovchi "Iste'dod" jamg'armasi, O'zbekiston bolalar fondi, O'zbekiston yoshlari palatasi, "Farzandim - jigarbandim" ijtimoiy birlashmasi, Respublika imkoniyati cheklangan yoshlarni qo'llab - quvvatlovchi "Ulug'bek" jamg'armasi, "Istiqbol" ta'lim va axborot ittifoqi, Toshkent avtomobil – yo'llari institutini qo'llab-quvvatlovchi "Talaba" jamg'armasi va boshqa ko'pgina tashkilot va jamiyatlar faoliyat yuritmoqda.

Ammo, ushbu tashkilotlar orasida yoshlarimiz ko'ngliga kirib borgan, uning manfaatlarini himoya qiluvchi yoshlar harakati ya'ni "Kamolot" yoshlar harakatining tashkil topishi mustaqillik yillarida yoshlar hayotiga bog'liq bo'lgan eng ahamiyatli qolaversa muhim tarixiy voqeaga aylandi. Yoshlar tashkilotlari, jamiyatlari haqida so'z ketar ekan bugungi kunda "Kamolot" YOIHning ko'makdosh tashkilotlari orasida yoshlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati, ularning maqsad va vazifalari

to'g'risida to'xtalib o'tsak.

“Umid” jamg'armasi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jahon andozalari darajasida bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol milliy kadrlar ulkan hissa qo'shishini nazarda tutib, vatanga fidokorona xizmat qiladigan, sadoqatli, uning buyuk va qudratli uchun qayg'uradigan, o'z iqtidori bilan ona yurtini ulug'lashga qodir, iste'dodli yigit-qizlardan xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlari uchun yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida “Umid” jamg'armasi tuzildi. Jamg'arma Prezidentimiz 1997 yil 7 yanvardagi Farmoniga asosan tashkil topdi.⁴⁶

Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

-O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida iste'dodli yoshlarni tanlab olish, ularni saralash va o'qitish, tegishli reja va dasturlar ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga joriy etish, hamda tanlov asosida chet el oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborish;

-qobiliyatli yoshlarning nufuzli xalqaro olimpiada va tanlovlarda ishtirok etishini tashkil etish va ularni rag'batlantirish, shuningdek yetakchi chet el oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlari, ta'lim yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'natish;

-iqtidorli yoshlarning jahon andozalari talablari darajasidagi ilg'or bilimlar asosida tahsil olishlari, barkamol inson va yuksak ma'naviyatli, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishlariga moddiy – ma'naviy homiylik qilish;

-chet el o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan hamda ta'lim olib kelgan iqtidorli yoshlar bilan doimiy aloqalar o'rnatish, ularni milliy tiklanish mafkurasiga asoslangan holda umumbashariy qadriyatlarni o'rganishga, O'zbekiston ilm –

⁴⁶ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi (To'ldirilgan ikkinchi nashri) –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000 yil. 90-bet.

fanining shon – shuhratini, obro’ – e’tiborini dunyoviy miqyoslarga olib chiqishga da’vat etish.

Prezidentimiz 1996 yil yakunlari hamda 1997 yildagi qilinadigan ishlarga bag’ishlangan majlisdagi “Islahotlar izchiligi – inson manfaatlari omili” nutqida “Umid” jamg’armasi haqida qo’yidagilarni ta’kidlab o’tdi: “Yana bir muhim, ustuvor masala, 1997 yilda biz yaxshi, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor berishimiz kerak”⁴⁷

Bugungi kun yoshlar bilan muntazam, qunt bilan ish olib boorish, iste’dodli bolalarni saralab, ularga chet elning yaxshi o’quv markazlarida professional bilim olishlari uchun shart – sharoitlar yaratishni taqozo etyapti. Bumaqsadni amalga oshirishda yaqinda tuzilgan “Umid” jamg’armasidan umidimiz katta. Bir so’z bilan aytganda, biz o’z iste’dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho’qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak.”⁴⁸

„Umid“ jamg’armasi va „Ustoz“ jamg’armalari 2003 yil 1 iyulda birlashtirilib, ular negizida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining „Iste’dod“ jamg’armasi tashkil topdi. „Iste’dod“ jamg’armasi orqali respublikamiz oliy o’quv yurtlari AQSH, Angliya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Finlyandiya, Italiya, Gretsiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Belgiya, Misr, Malayziya, Isroil kabi xorijiy davlatlarning oliy o’quv yurtlari bilan ta’lim, ilmiy, ilmiy-uslubiy sohalarda tajriba orttirish uchun talabalar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va professor-o’qituvchilar almashinuvi bo’yicha hamkorlikda ish olib bormoqda.⁴⁹

“Iste’dod” jamg’armasi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish “Iste’dod” jamg’armasi 2003 yil 1 iyulida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg’armaning vazifalari:

- mamlakatimizning intellektual salohiyatini, fan, pedagogika va iqtisodiyotimiz

⁴⁷“Ma’rifat” gazetasi. 1997yil 1 mart.

⁴⁸“Ma’rifat” gazetasi. 1997 yil 15 mart.

⁴⁹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Tarixiy xotira va inson omili - buyuk kelajagimizning garovidair” risolasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. T. 2012 y

rivojlanishi darajasiga ko'tarish, O'zbekistonda chuqur tarixiy ildizlarga ega va Respublikamiz taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilm-fan yo'nalishlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda faol ishtirok etish;

- dunyoda e'tirof etilgan nufo'zli oily ta'lim va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o'rnatish, o'zaro manfaatli ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni tashkil etish orqali istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar iste'dodining ochilishi va yuksalishiga ko'mak berish;

- mamlakat ta'lim va ilmiy muassalarida pedagogik va ilmiy faoliyat borasida muayyan yutuqlarga erishgan, ilmiy izlanishlarni boshlagan, yuksak ijodiy salohiyat va qobiliyat sohiblari bo'lgan istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning iste'dodini rivojlantirish;

- istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning Jamg'arma grantlari asosida taraqqiy topgan davlatlarning ilg'or ta'lim va ilmiy muassasalarida nazariya va amaliyotining zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha malaka oshirish hamda maqsadli tajriba orttirishiga, O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun ustuvor yo'nalishlar bo'yicha bilimni chuqurlashtirishiga, progressiv ilmiy izlanishlarda ishtirok etishlariga ko'maklashish;

“Iste'dod” jamg'armasining bo'limlar ro'yxati:

- O'qish va malaka oshirishni tashkil etish bo'limi;
- Monitoring bo'limi;
- Moliya va investisiyalar bo'limi;
- Masofali o'qitish markazi;
- Intellect potensialini o'rganish markazi;

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»⁵⁰gi qarorni imzoladi. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida: Samarqand va Farg'onada hayvonot bog'i ochiladi, O'zbekiston o'quvchilari 25 million nusxa darslik bilan ta'minlanadi. Dastur 7 bo'lim va 125 banddan iborat bo'lib, unda bolalar tug'ilishi, ta'lim-tarbiyasi, oilada sog'lom

⁵⁰ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori

muhitni, uning iqtisodiy va ma'naviy-ahloqiy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy soha rivojiga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish bilan bog'liq barcha masalalar aks etgan. «Birinci navbatda, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan»⁵¹ Davlat dasturiga ko'ra, sakkizta qonun loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. «Bolalarni jismoniy va ma'naviy rivojiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida», «Aholining sanitariya-epidemiologik barqarorligi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida», yangi tahrirdagi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida»gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir. Umuman, davlat dasturida ko'zda tutilgan barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun 4,5 trillion so'm va 302,9 million dollar mablag' sarf etiladi.⁵²

“Ta'lim to'g'risida”⁵³gi (1997 yil 29 avgust) Qonun(yangi tahriri) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi⁵⁴. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktabrdagi “ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida”⁵⁵gi Farmoni mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish borasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu Farmon asosida “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi. Ana shu maqsadni amalga oshirish, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish uchun bizga yot va begona bo'lgan zararli

⁵¹O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qaroridan

⁵² Manba: Kun.uz

⁵³ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁵⁴ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

⁵⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1997 yil 6 oktabrdagi “ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida”gi Farmoni

g'oyalar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish, yoshlarning ongida mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. 2012-2013 o'quv yilida mamlakatimizda 12 yillik majburiy bepul ta'limga o'tish to'liq ta'minlandi. 2013 yilning 1 yanvaridan boshlab yangi tizim oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berish tizimi joriy etildi. Yangi tizimning yana bir afzalligi shundaki, unda bakalavr ilmiy darajasiga ega bo'lgan kadrlarga ham doktorlik dissertatsiyasi himoya qilish imkoniyati beriladi. Bu ilmiy tadqiqotlar sifatining yuqori bo'lishi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ko'tarilishida muhim ahamiyatga ega. 2013 yil 1 yanvardan boshlab mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etildi. Milliy ta'lim tizimini isloh qilishning ijobiy natijalari yoshlarimizning xalqaro maydondagi yutuqlarida yorqin ifodasini topmoqda. Masalan, Astana shahrida o'tkazilgan kimyo fani bo'yicha Xalqaro olimpiadada O'zbekistonlik o'quvchilardan 1 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalini qo'lga kiritganlar. 2013 yilda O'zbekiston mezbon bo'lgan 47-xalqaro Mendeleyev olimpiadasida dunyoning 17 ta davlatidan kelgan 117 nafar iqtidorlilar safidan o'rin olgan 20 nafar hamyurtimiz 2 ta oltin, 5 nafari kumush, 8 nafari bronza medallari bilan taqdirlandi.

Fransiyadagi "Inssad" xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi "Innovatsiyalarning global indeksi" ma'ruzasida dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston 2-o'rinni egallagan. Mustaqillik va Vatan taraqqiyoti g'oyalariga sodiq bo'lgan yangi insonni tarbiyalash va voyaga yetkazish shu kunning muhim vazifasidir. Chunki mustaqil, ozod va obod o'lkamizning kelajagini ko'p jihatdan yuksak ma'naviyatli komil insonlar hal qiladi. Shunday ekan, yuksak ma'naviy fazilatlar, ezgu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirmasdan, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmasdan turib barkamol insonlarni tarbiyalashdek yuksak vazifaning

istiqlolini tasavvur etib bo'lmaydi. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, nafaqat chuqur va har tomonlama bilimga ega, shu bilan birga dunyoqarashi keng, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalangan yangi avlodni shakllantirishdan iborat. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish ishi O'zbekistonda davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi". Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan "Ta'lim to'g'risida"⁵⁶gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi⁵⁷ qabul qilindi, yoshlarning xorijning yetakchi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishi hamda malakasini oshirishi uchun jamg'armalar tashkil etildi. Katta ijtimoiy ahamiyatga ega Kadrlar tayyorlash milliy dasturi strategik maqsadga erishish, ya'ni O'zbekistonda kuchli demokratik davlat barpo etish va uni yanada barqaror rivojlantirishning asoslaridan biriga aylandi. Shaxsni shakllantirish va uning manfaatlarini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarishni rivojlantirish ushbu dasturning bir-biri bilan uzviy bog'liq tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu dasturda mujassam bo'lgan g'oyalar hozirgi zamon jamiyatida ta'limning o'rnini va ahamiyati haqidagi tasavvurlarni butunlay o'zgartirib yubordi. Mazmun-mohiyati va ko'lami jihatidan noyob ushbu ijtimoiy loyihaning davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlanishi uni amalga oshirish davomida katta natijalarga erishish imkonini berdi. Dasturni ro'yobga chiqarishda ta'lim tizimini zamon talablari va jamiyatimiz ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda isloh qilish borasida ulkan amaliy tajriba to'plandi. Xorijiy davlatlarda ham ushbu tajribaga qiziqish katta. 1999 yilda YUNESKO tomonidan O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha ijobiy tajribani boshqa mamlakatlarda o'rganish va joriy etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosi ta'limning uzluksizligini ta'minlash hisoblanadi. Ta'lim olish maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanib,

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I

⁵⁷ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.1997-y. N 463-I

maktabda, keyinchalik ushbu milliy dasturni amalga oshirish doirasida tashkil etilgan yangi turdagi bilim dargohlari – kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda davom ettiriladi. Yigit-qizlar ko‘pincha o‘z bilimini chuqurlashtirish maqsadida mazkur o‘quv muassasalarini tamomlagach, oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirmoqda. Oliy ta’lim ikki bosqich – bakalavriat va magistraturadan iborat. Doktoranturani o‘z ichiga olgan keyingi bosqich oliy o‘quv yurtidan so‘nggi ta’lim hisoblanadi. Kadrlar malakasini muntazam oshirish va qayta tayyorlash ham dasturning muhim tarkibiy qismidir. Shu tariqa, mamlakatimizda shaxs va kasbiy bilimni muntazam takomillashtirishga yordam beradigan uzluksiz ta’lim tizimi yaratildi.⁵⁸ O‘zbekistonda mamlakatimiz va xorijda to‘plangan eng yaxshi tajribalarni hisobga olgan holda, ta’limning barcha turlari uchun yangi davlat standartlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Barcha fan va mutaxassisliklar bo‘yicha ushbu standartlarga javob beradigan yuzlab darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanib, chop etildi. O‘zgarib borayotgan talablar asosida o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi shakllantirildi. O‘quv yurtlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari bilan jihozlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O‘quvchilar elektron darsliklar yordamida bilim olmoqda, ular Internetdan foydalanish imkoniga ega, kutubxonalar elektron kataloglarga o‘tkazilmoqda. 2013-yilda ta’lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta’lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, litsey va kollejlari, oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e’tibor berildi. 2013 yili 28 ta yangi kasb-hunar kolleji qurildi, 381 ta umumta’lim maktabi, oliy o‘quv yurtlari tizimidagi 45 ta ob’ekt, 131 ta kasb-hunar kolleji va litseylar rekonstruksiya qilindi va kapital ta’mirlandi. Shuningdek, 55 ta bolalar musiqa va san’at maktabi, 112 ta bolalar sporti ob’ekti va 4 ta suzish havzasi foydalanishga topshirilib, ularning barchasi zarur uskuna va inventarlar

⁵⁸ Usmonov. Q. va boshqalar. O‘zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.-T.; O‘qituvchi, 1996 y.

bilan jihozlandi. 2013-yilda ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar haqida so'z borar ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodning xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan ishlarni alohida qayd etish lozim. Jahonda integratsiya jarayonlari kuchayib, kundalik hayotga kompyuter texnologiyalari va internet keng joriy etilayotgan bugungi sharoitda chet tillarni puxta bilmasdan va egallamasdan turib kelajakni qurib bo'lmastligini barcha yaxshi anglab olmoqda.⁵⁹ Shularni inobatga olib, 2013-2014 o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinfidan chet tillarni o'rgatishning uzluksiz tizimini joriy etildi. Barcha umumta'lim muassasalarida chet tillarni o'rgatish bo'yicha 17 mingdan ortiq o'quv xonalari tashkil etildi. 1-sinf o'quvchilari uchun chet tillar bo'yicha multimedia varianti ilova qilingan, 538 mingdan ziyod rangli darslik chop etildi. 2 ming nafarga yaqin chet tili o'qituvchisi tayyorlandi va ularning umumiy soni 26 ming kishiga yetdi.⁶⁰ Mamlakatimizning barcha mintaqalarida chet tillarni bir xil sharoitda o'qitish, qishloq joylarga yuqori malakali ingliz tili o'qituvchilarini jalb etish maqsadida, tarif stavkalariga 30 foiz qo'shimcha haq belgilangan holda, ularni moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etildi. Televideniyada chet tillarni o'rgatish bo'yicha qiziqarli o'yinlar dasturiga ega bo'lgan maxsus bolalar ma'rifiy kanallari tashkil qilindi⁶¹. Yoshlarga ta'lim berishning yangicha shakllari, birinchi navbatda, oliy maktab tizimi va mamlakatimizning haqli ravishda bosh oliy o'quv yurti hisoblanadigan O'zbekiston Milliy universitetida sinovdan o'tkazildi. Chunki Milliy universitet kasbiy yo'nalishlar bilan bog'liq fanlarni chuqur o'rganishga hamda talabalarda ilmning turli sohalari bo'yicha keng bilim doirasini shakllantirishga asoslangan fundamental ta'limning asriy an'alariga ega. Ta'lim sifatini oshirish Kadrlar

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili -buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T., "O'qituvchi", 2012. -B 97

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili -buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T., "O'qituvchi", 2012. -B 97

⁶¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизни 2013-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси. 18.01.2014.

tayyorlash milliy dasturining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va mamlakatimizning bosh universitetida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qitish jarayoni muntazam takomillashtirilmoqda, ilg'or pedagogika texnologiyalari joriy etilmoqda.

O'zbekiston oliy maktab tizimida kadrlar tayyorlashning muhim xususiyatlaridan biri o'qitishni ilmiy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda olib borish hisoblanadi. Ular ilmiy to'garaklar, talabalar ilmiy jamiyatida faol shug'ullanmoqda, talabalar konferensiyalari, seminarlarida ishtirok etmoqda, oliy o'quv yurtlari laboratoriyalari va turdosh ilmiy-tadqiqot institutlarida davlat budjeti tomonidan moliyalanadigan fundamental, amaliy hamda innovatsiya loyihalari doirasida mustaqil tadqiqotlar o'tkazilmoqda, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarining buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida xo'jalik ishlarini amalga oshirmoqda.

2013 yilning bahorida bo'lib o'tgan birinchi Respublika innovatsiya g'oyalari va loyihalari yarmarkasi natijalari ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi yanada mustahkamlanib borayotganidan dalolat berdi. Uch kun davomida yarmarkada Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy ta'lim muassasalari tomonidan oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilgan innovatsiya ishlanmalarini joriy etish bo'yicha umumiy qiymati 4,5 milliard so'mga teng 192 ta shartnoma hamda ahdlashuv protokollari tuzildi. Shu tariqa, ilm-fan bilan shug'ullanish bugungi kunda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida talabalar tomonidan egallanayotgan eng yaxshi jahon standartlariga mos ta'lim sifatini oshirishga yordam bermoqda. Ta'lim tizimida yosh avlodni o'qitish sifatini oshirish va tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish tajribasi mamlakatimiz hamda boshqa davlatlardagi barcha oliy o'quv yurtlari uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu tajriba keng tatbiq etilmoqda, ko'plab xalqaro va respublika konferensiyalari, simpoziumlarida o'rganilmoqda. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti" mavzuidagi

xalqaro konferensiya ishtirokchilari 2012-yil 16 fevral kuni Toshkentda⁶²gi umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida bo'lib, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari, ta'lim dargohlarida o'quvchi va talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Xalqaro konferensiya ishtirokchilarining bir guruhi tashrif buyurgan Olmazor tumanidagi 243-umumta'lim maktabi Toshkentdagi eng namunali maktablardan biridir. 2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturiga muvofiq maktab "Mehr nuri" nodavlat notijorat jamoat xayriya jamg'armasi ko'magida kapital ta'mirlandi va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari amalga oshirildi.⁶³

O'zbekiston ta'lim tizimi tahsinga loyiq, – deydi Buyuk Britaniya ingliz tili o'qituvchilari assotsiatsiyasi prezidenti Lesli Kirkam. "– Mening mamlakatingizga uchinchi marta kelishim va har safar tashrifim davomida ta'lim tizimida ko'plab yangi va foydali o'zgarishlarning guvohi bo'laman. Men O'zbekiston davlat ta'lim standartlari jahon standartlariga to'liq mos keladi, degan fikrdaman". Xalqaro konferensiya ishtirokchilari 12 yillik uzluksiz ta'lim tizimi hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan Toshkent aloqa kasb-hunar kollejida ham bo'lishdi.⁶⁴ Mazkur o'quv yurtida kommutatsiya tizimlari, aloqa liniyalari, raqamli uzatish tizimlari, radioaloqa, radioda ovoz yozish va televideniye, pochta aloqasi vositalariga xizmat ko'rsatish, shuningdek, menejment va buxgalterlik hisobi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. O'quvchilar o'qishni tamomlagach, o'z kasbini mukammal egallagan mutaxassislar sifatida radio, tele, pochta va uyali aloqa muassasalari hamda tashkilotlariga ishga qabul qilinishi mumkin. – O'zbekiston ta'lim tizimi haqida ko'p eshitganman, – deydi Avstriya parlamenti a'zosi, Avstriya millatlararo hamjihatlik jamiyati prezidenti Jozef Xoshtl. – Haqiqatan ham, mamlakatingizda istiqbol yillarida ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar tahsinga sazovor. Bu yerdagi barcha o'quv yurtlarida tillarni o'rganishga

⁶² 2012-yil 16 fevral kuni Toshkentda "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti" mavzuidagi xalqaro konferensiya materiali

⁶³ Manba: kun .uz sayti

⁶⁴ Manba: kun .uz sayti 2012-yil 16 fevral kuni Toshkent

katta e'tibor berilayotgani bizni quvontirdi. Zero, bu hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv davrida mamlakatingiz ilmiy salohiyati uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilayotganini ham alohida ta'kidlash lozim. O'zbekistonda ta'lim tizimi jahon standartlari darajasida ekanligini konferensiya ishtirokchilari ishonch hosil qildilar.

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o'rindadir. Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuq va marralar haqida so'z yuritilganda, boshqa muhim sohalar qatori ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni himoya qilish borasida amalga oshirayotgan umummilliy dasturlarimiz, ularning ulkan amaliy natijalari birinchi navbatda tilga olinadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojiga berayotgan e'tibori, shu yo'ldagi sa'y-harakatlari bilan o'lchanadi. Jahondagi eng nufuzli tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga ayni shu masalalarning ustuvor yo'nalishlar sifatida kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyotining birinchi kunlaridan boshlab inson, uning huquq va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida ulug'lab, bu g'oyani davlatimiz Konstitutsiyasida huquqiy qoida shaklida mustahkamlab qo'ydi. Shu asosda o'tgan davrda g'oyat keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, inson manfaatlarini ta'minlash barcha o'zgarish va islohotlarimizning bosh maqsadiga aylandi. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimovning BMT Bosh assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisi minbaridan turib so'zlagan nutqi va boshqa chiqishlarida atroflicha fikr yuritilgani, bu borada yaqin va olis istiqbolga mo'ljallab qabul qilingan strategik dasturlarimizning mazmun-mohiyati keng bayon etilgani jamoatchiligimizga yaxshi ayon. Eng muhimi, ularning har biri yurtimizda yangi demokratik jamiyat qurish konsepsiyasining uzviy tarkibiy qismi sifatida buyuk kelajagimiz binosini barpo

etishda g'oyat muhim rol o'ynamoqda. Bu dasturlar tobora amaliy hayotimizdagi real qadriyatga, yangicha hayot va dunyoqarash negiziga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi. Bugungi kunda bu yo'lda qat'iyat bilan olib borilayotgan ishlarning aniq natijalarini har bir yurtdoshimiz o'z hayotida his etayotgani, ularning ongu tafakkuri, ma'naviy olami ana shunday o'zgarishlar tufayli yuksalib borayotgani shunday deb ta'kidlashga asos beradi.

2011 yilning noyabr va 2012 yilning fevral oylarida mamlakatimiz poytaxtidagi Simpoziumlar saroyida o'tkazilgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" hamda "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti"⁶⁵ mavzusidagi xalqaro konferensiyalar haqida eslash o'rinlidir. Xususan, yuqorida zikr etilgan ikkinchi xalqaro anjumanda dunyodagi 8 ta nufuzli xalqaro tashkilot va 48 davlatdan 270 nafar ishtirokchi qatnashdi.⁶⁶ Ularning barchasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishib, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarida bo'lib, O'zbekistonda ta'lim sohasida shakllangan samarali modelni yuksak baholadilar, bu borada to'plangan tajribalarni boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida tavsiya etish mumkin, degan xulosaga keldilar. Ta'kidlash kerakki, bunday e'tiroflar geografiyasi keyingi paytda tobora kengayib, ular aniq ilmiy-amaliy tadqiqotlar, xalqaro tahliliy hujjatlarda ham o'z aksini topmoqda. Buning tasdig'ini xalqaro media olamida mashhur bo'lgan CNN kompaniyasining AQSh, O'zbekiston va jahonning boshqa davlatlarida ta'limning holati to'g'risida yaqinda

⁶⁵ 2011 yilning noyabr va 2012 yilning fevral oylarida mamlakatimiz poytaxtidagi Simpoziumlar saroyida o'tkazilgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" hamda "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili -buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T., "O'qituvchi", 2012. –B 97

e’lon qilingan qiyosiy axboroti misolida yaqqol ko’rish mumkin.⁶⁷ Shunisi e’tiborliki, bu axborot Fransiyaning nufuzli “Insead” xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e’lon qilingan “2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi” deb nomlagan tahliliy ma’ruzaga asoslanadi. Aytish kerakki, ushbu tadqiqot dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanish borasidagi 80 ta ko’rsatkichini o’z ichiga oladi. Tadqiqot 2012-yilda 141 ta mamlakatni qamrab oldi. Bu mamlakatlar jahon miqyosida yalpi ichki mahsulotning 99,4 foizini ishlab chiqarishi, sayyoramiz aholisining 94,9 foizi aynan shu davlatlarda istiqomat qilishini inobatga oladigan bo’lsak, mazkur tadqiqotning ko’lami, salmog’i va geografiyasini o’zimizga yaqqol tasavvur qilishimiz mumkin. Ma’ruza mualliflarining fikriga ko’ra, dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishi innovatsion salohiyat va qulay shart-sharoitlarning mavjudligi bilan bevosita bog’liqdir. Bunday holatni baholashda har qaysi mamlakatning innovatsiyalar bo’yicha indeksi alohida o’rin tutadi. Mazkur indeks esa quyida bayon etilayotgan ikki guruh ko’rsatkichlar bo’yicha yig’ilgan umumiy baholar asosida hisoblanadi. Birinchi guruh – innovatsiyalarni amalga oshirish uchun mavjud resurs va sharoitlar (institutlar; inson kapitali va tadqiqotlar; infratuzilma; ichki bozor va biznesning rivojlanishi). Ikkinchi guruh – innovatsiyalarni amalga oshirishning amaliy natijalari (texnologiyalar va iqtisodiyot haqidagi bilimlarni rivojlantirish; kreativ faoliyat natijalari). Yakuniy indeks xarajatlar va erishilgan samara o’rtasidagi nisbatni namoyon etadi va bu o’z navbatida tadqiqotda qamrab olingan har qaysi mamlakatdagi innovatsiyalarni rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlarni holis baholash imkonini beradi. Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar ko’rsatkichi bo’yicha O’zbekiston ushbu reytinglar ro’yxatida 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o’rinni egallagan. Birinchi o’rinni esa 75,70 ball bilan Irlandiya band etgan.⁶⁸ Daniya,

⁶⁷ Bu axborot Fransiyaning nufuzli “Insead” xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e’lon qilingan “2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi” deb nomlagan tahliliy ma’ruzaga asoslanadi.

⁶⁸ Bu axborot Fransiyaning nufuzli “Insead” xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e’lon qilingan “2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi” deb nomlagan tahliliy ma’ruzaga asoslanadi.

Yangi Zelandiya, Islandiya, Belgiya singari bir guruh rivojlangan Yevropa va boshqa qit'a mamlakatlari ushbu ro'yxatning keyingi o'rinlaridan joy olgan. Katta moliyaviy resurslarga ega bo'lgan Saudiya Arabistoni 65,49 ball bilan 15-o'rinni egallagan bo'lsa, dunyoning eng qudratli davlatlari bo'lmish AQSh 31-o'rinni (61,34 ball), Xitoy esa 67-o'rinni (52,23 ball) band etgan. Belarus 60,55 ball bilan 36-o'rinni, Rossiya 55,18 ball bilan 55-o'rinni egallagan. Sobiq sovet hududidagi boshqa mamlakatlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ular reytingda quyidagicha joylashgan: Qozog'iston 69-o'rin, Qirg'iziston 72-o'rin, Armaniston 85-o'rin, Gruziya 87-o'rin, Ozarboyjon 89-o'rin, Tojikiston 107-o'rin.⁶⁹

Tadqiqotga binoan, ta'lim tizimi rivojlanishining qator ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston dunyodagi ko'plab davlatlardan ilgarilab ketgan. Xususan, davlatning ta'lim tizimi rivoji, maktablarni kapital qurish va yangilash uchun yo'naltirayotgan sarf-xarajatlari, o'quvchilarning umumiy soniga nisbatan o'qituvchilarning soni necha foizni tashkil etishi, aniq fanlar va muhandislik ishi sohasidagi bitiruvchilar soni, GMAT, ya'ni o'quvchilarning biznes maktablarida muvaffaqiyatli ta'lim olish qobiliyatini aniqlash uchun standartlashgan test asosidagi o'quvchilarning o'rtacha bahosi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekistonning natijalari boshqa mamlakatlardan yuqori ekani tahliliy misollar orqali ayon bo'ladi. Zikr etilgan tadqiqotda O'zbekistonning bu borada erishgan yutuqlarining asosiy mezon va omillari haqida atroflicha fikr yuritiladi. Ayniqsa, inson kapitali va tadqiqotlar uchun investitsiyalar, ta'lim rivojiga qaratilgan davlat xarajatlarining darajasi va umuman, ta'lim tizimining holati O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va innovatsion salohiyatining eng kuchli tomonlaridan biri ekani alohida ta'kidlanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini esga olish o'rinlidir: "Biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va xalq uchun kundalik hayot

⁶⁹ Bu axborot Fransiyaning nufuzli "Insead" xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e'lon qilingan "2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi" deb nomlagan tahliliy ma'ruzaga asoslanadi.

mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar”⁷⁰. Aytish kerakki, bir paytlar umumbashariy rivojlanishdan chindan ham chetda qolib ketgan xalqimiz o‘tmishning achchiq tajribasidan to‘g‘ri saboq chiqarib, mustaqillik yillarida ilm-ma’rifatga, intellektual taraqqiyotga intilish, yoshlarimizni aynan shu ruhda tarbiyalash masalasini o‘zi uchun eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olgani va bu borada ulkan amaliy samaralarga erishayotgani tufayli bugungi kunda O‘zbekiston jahon taraqqiyotining oldingi saflariga chiqib bormoqda. Buni yuqorida zikr etilgan reyting natijalari ham yaqqol isbotlab turibdi.

⁷⁰ Каримов И.А. Соғлом халқ, соғлом миллатгина буюк ишларга қодир бўлади. Халқ сўзи газетаси, 2004-йил 8-декабр

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida yurtimizda yangi avlod kadrlarini tayyorlash, iste'dodli yoshlar bilan ishlash masalalari yangicha g'oyaviy-siyosiy asosda, aniq samarali tizim bo'yicha yo'lga qo'yildi. Bunda, davlat va jamiyat qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy kabi sohalarda zamon talablariga javob beradigan yangi avlod kadrlarini tayyorlashga alohida e'tibor berilib, bu boradagi islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Shuningdek:

- ❖ kadrlar tayyorlash milliy dasturi negizida yurtimizda samarali milliy ta'lim modeli shakllandi va muvaffakiyatli faoliyat ko'rsatmoqda;
- ❖ tarmoq vazirliklariga qarashli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yangi avlod kadrlarini tayyorlash tizimi isloh qilinib, rivojlanib bormoqda;
- ❖ Davlat boshqaruvi akademiyasi, Tibbiyot akademiyasi, Qurolli kuchlar akademiyasi kabi zamonaviy ta'lim muassasalarida yangi avlod kadrlari bilan birgalikda, rahbar hodimlar, ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ham keng yo'lga qo'yildi.

So'ngi so'z o'rnida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning ushbu so'zlarini keltirish joiz: „Siz jahon tsivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, dunyoning beshigini tebratgan buyuk ajdodlarimizning vorislarisiz. Endi ularga munosib bo'lib, zamonamizning eng ilg'or yutuqlarini o'zlashtirib, orttirajak bilim va tajribalaringizni Vatanimiz ravnaqi yo'lida sarf etishingizga, bu borada tengdoshlaringizga ibrat bo'lishingizga ishonchim komil”⁷¹.

⁷¹ Президентга мактублар.- Т.:”Манавият” 2006 , 82-бет

Umumiy xulosa:

Ulug` marifatparvarimiz Abdurauf Fitrat so`zlari bilan aytganda “Tarix – millatlarning o`tmishi, taraqqiyoti va tanazzuli sabablarini o`rganaturg`on ilmdir”. Bu so`zlar o`zida ulkan mazmunni kasb etadi, zero o`tmishini bilmagan xalq, haqqoniy tarixiy merosdan bexabar millatning ertasi yo`q.

Demak, millatni bir yo`lda jipslashtiruvchi, yakdillik ruhida taraqqiyot sari yo`naltiruvchi milliy g`oya, tarixiy meros ruhida sug`orilarkan, bunday g`oya abadiy yashaydi. Tarixni anglash o`zlikni bilish demakdir. Milliy g`oyani targ`ib etishda tarixiy merosning ahamiyati - millat ongida, ayniqsa, yurtimiz kelajagi bo`lmish barkamol avlod shuurida tarixiy ong va tarixiy xotirani yaxlit birlikda mujassamlashtirishdan iboratdir.

O`zlikni anglash insonning kamol topishidagi muhim jarayon bo`lib, shaxs o`z xalqini o`tmish tarixi, madaniyatining noyob namunalarini o`rganib, ma`lum bir tushuncha hosil qiladi, o`z bilimini oshiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Bu o`z navbatida uni o`zligini anglashiga olib keladi va har tomonlama rivojlangan, ongi yuksalgan, insoniy burchini teran anglab yetgan bo`ladi. Vatanining haqqoniy tarixini bilmagan inson men shu yurt farzandiman deya olmaydi. O`zligini anglamagan bunday insonlar o`z manfaati yo`lida har qanday ishga tayyor inson bo`lib yetishishi yoki ma`naviy yuksalmagan, o`z fikriga ega bo`lmagan, o`zini hamda o`z yurtini qadr-qimmatini bilmaydigan kishi bo`lib qolishlari mumkin.

Milliy g`oya ruhida kamol topgan inson eng avvalo o`z xalqi – millati tarixini bilgan holda tarixiy ong, tarixiy xotiraga ega bo`ladi, buyuk bobomiz Amir Temur aytganlaridek, o`zining ongli faoliyati bilan millatning dardiga darmon bo`ladi.

Tarixiy merosni targ`ib etishning mukammalligi yoki zaifligi u yoki bu millatning, ijtimoiy etnik birlikning tarixiy ongi, xotirasini qay darajada rivojlanganiga bog`liq bo`ladi. Tarixiy meros ijtimoiy etnik birlikning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni bilan hamohang rivojlanib boradi.

Xulosa qilish mumkinki, o'z manfaat ehtiyojlarini moddiy jihatdan qondirgan millat ma'naviy hayotini ham shu asosda quradi. O'z o'tmishini sarhisob qilgan holda kelajagini belgilaydi. Boshqalar oldida o'z mavqeini asoslash va uni mustahkamlash uchun o'z qadriyatlarini himoya qiladi. Anashu himoya qilish vositasi uning o'tmish tarixini muhim jihatlarini belgilaydigan tushuncha uni tarixiy ongi va xotirasi bo'ladi.

Tarixiy ong, tarixiy xotira shu tarzda shakllanib, millatni o'zligini bilish tuyg'usini keltirib chiqaradi. Bu holni biz shunday tasvirlaymiz: Bu uzliksiz jarayon fuqarolarimiz ongida alohida his tuyg'u, or-nomus, o'z xalqiga nisbatan hurmat, millat miqyosida esa milliy iftixorni shakllantiradi.

Tarixiy meros va millat tarixining shonli o'tmishi har bir kishining ijtimoiy ongida milliy g'urur va milliy iftixorni mustahkamlaydi, o'tmish ajdodlarning qahramonona faoliyati oldida milliy tuyg'u kuchayadi.

Milliy g'oya targ'ibotida o'zlikni anglash va tarixiy meros bir-birini taqozo qilib keladi. Tarixiy ong milliy o'zlikni unsuri sifatida inkor qilinganda u qashshoqlashib qolib, o'z jozibasini, ahamiyatini yo'qotadi. Inson o'z kelajak avlodini ta'lim-tarbiyasida milliy jihatlariga e'tibor bermasa bo'lg'usi avlodi vatansizlik dunyoqarashiga ega bo'ladi.

Har bir xalq, millat haqqoniy tarixini tiklab, o'zligini anglagan taqdirdagina u haqiqiy millat bo'lishi mumkin. Kishilarning ijtimoiy ongida ularning milliy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlari o'z aksini topib, milliy borliq ular hayotining ajralmas qismini tashkil etib, ijtimoiy ongning milliy o'z-o'zini anglash deb ataladigan ijtimoiy ong sohasining paydo bo'lishi, rivojlanishini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

III O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т., “Ўзбекистон”. 1996.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т., “Ўзбекистон”. 1999.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., “Маънавият”. 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T. O'zbekiston, 2012
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda 9-bet T.2012y

IV Asosiy adabiyotlar:

1. Abrorov M. Yangicha fikrlash va milliy urf-odatlar. T.: Fan, 1990.
2. Azizxo'jaev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T.: Sharq, 1997.
3. Jabborov I. O'zbeklar (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). T.: “Shark”, 2008.
4. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi xolat. T: TIU, 2011.
5. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. T., ”O'qituvchi”, 2007, 207-bet.
6. O'zbekiston mustaqillik yillarida. "O'zbekiston", 1996 y

V Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak -T.: “O'zbekiston” 2017.
2. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. T., 2001.
3. Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi. T., 2003.
4. Aminov B.,Rasulov T. Vatan – yurakdagi javoxir. – T.: Ukituvchi, 2001;

5. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari xaqida mulohazalar. – T.: “Sharq”, 2001.
6. Ibrohimov A. Vatan tuyg'usi. T., "O'zbekiston", 1996.
7. Ibrohimov A. Millat ovozi. “Sharq”- T., 2002.
8. Qosimov R., Sodiqov M. Mustaqillik – oliy ne'mat. T., 2000.
9. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida T.: O'zbekiston, 2005.
10. Ochildiev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. T.: O'zbekiston, 2004;
11. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Тошкент, 1997. 2-бет.

VI Davriy nashrlar, normativ huquqiy xujjatlar:

1. “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Axborotnomasi N 2, 80-modda, 1992 yil
3. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonuni 29.08.1997-y. N 464-I
4. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2004, 2008, 2010 yillar, 21-son, 42-son, 30-son; “Xalq so'zi”, 2010-yil 29-iyul;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida” gi 451-sonli qarori. // “Xalq so'zi”, 2006 yil 26 avgust
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida”gi 486-sonli qarori. // “Xalq so'zi”, 2006 yil oktabr
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-805-sonli qarori. 2008 yil 29 fevral;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori.

9. „Tafakkur" jurnali. 1998-yil, 2-soni.
10. „Fidokor" gazetasi. 2000-yil 8-iyun.
11. Xalq soʻzi, 2001 yil, 9-fevral.
12. Xalq soʻzi, 2008, 9-fevral.
13. Moziydan sado, 2000 yil, 1-2-sonlar.
14. Республика халқ ижодиёти ва маданий-маърифий ишлар илмий-методик ҳамда ахборот маркази ахборотномаси. №31, 2012. – Б.3.
15. Prezident Islom Karimovning 2008 yil 9 apreldagi qarori “Yoshlar yili” Davlat dasturi
16. Oʻzbekiston Respublikasining Taʼlim toʻgʻrisidagi qonuni 29.08.1997-y. N 464-I
17. “Maʼrifat” gazetasi. 1997yil 1 mart.
18. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 19 fevral kuni «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori
19. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1997 yil 6 oktabrdagi “taʼlim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish toʻgʻrisida”gi Farmoni

VII Internet saytlari:

1. www.unesco.org/publishing
2. www.fondforum.uz
3. www.unesco.org/publishing
4. [www.oʻzbekiston ovozi.uz](http://www.o'zbekiston ovozi.uz)